جدید

Tilda, fikrda, ishda birlik!

Jadid

2026-yil 2-oktyabr
№ 40 (144)
www.jadid.uz

adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

@Jadidrasmiy @Jadidmediauz @Jadidrasmiy @Jadid_uz

SHAXMAT MAMLAKATI BO‘LAMIZ!



(3-sahifada o‘qing).

O‘ZBEKISTON O‘QITUVCHI VA MURABBIYLARIGA

Muhtaram ustoz va murabbiylar!

Avvalo, o‘z hayotini dunyodagi eng ulug‘ va sharafli ishga – yosh avlod tarbiyasiga bag‘ishlab kelayotgan sizdek mo‘tabar zotlarni, yurtimizdagi barcha pedagog xodimlarni 1-oktyabr – O‘qituvchi va murabbiylar kuni bilan chin yurakdan muborakbod etaman.

Ushbu qutlug‘ ayyomda Yangi O‘zbekistonimizning kuch-qudrati va salohiyati, qo‘lga kiritayotgan ulkan yutuq va marralarimiz, qalbimizdagi olijanob fazilatlarning bezavol manbalaridan biri bu bilim-ma’rifat, tarbiya va madaniyat ekanini yanada chuqur his etamiz. Aziz farzandlarimizni ayni shu ruhda tarbiyalab, Vatanimiz ravnaqiga munosib hissa qo‘shib kelayotgan barcha zahmatkash muallimlarimizga, ustoz-domlalarimizga samimiy minnatdorlik bildirib, cheksiz hurmat va ehtirom bilan ta’zim qilamiz.

Qadrli yurtdoshlar!

Bog‘cha va maktab ostonasiga ilk bor qadam qo‘ygan har bir bola uchun bilimlar eshigi, mo‘jizalar olamini ochadigan muhtaram o‘qituvchi va murabbiylar timsolida biz yangi shaxs, yangi avlod tarbiyachilarini ko‘ramiz. Shu yo‘lda shogirdlariga ko‘z nuri, yurak qo‘rini berib mehnat qiladigan, o‘z kasbiga sodiq va jonkuyar bunday insonlar, hech shubhasiz, milliy pedagogikamizning oltin fondini tashkil etadi. Men Uchinchi Renessansning mustahkam poydevorini aynan mana shunday fidoyi ustozlar faoliyatida, ularning kasb mahorati, qalb saxovatida ko‘raman.

Maktab kelajak bog‘i bo‘lsa, muallim shu maskanda umid nihollarini o‘stiradigan mohir bog‘bondir. O‘qituvchi – mehr daryosi, ezgulik bulog‘i, ma’rifat quyoshidir. Shu bois, bu mas’uliyatli soha xodimlarining mehnatini ulug‘lash va qadrlashdan hech qachon charchamaymiz.

Aziz do‘stlar!

Bugungi kunda erishayotgan, havas qilsa arziydigan natijalarimiz orasida ta’lim yo‘nalishidagi yutuqlarimiz biz uchun alohida qadrli desam, o‘ylaymanki, butun xalqimizning fikrini ifoda etgan bo‘laman. Chunki bundan atigi o‘n yil oldin ijtimoiy hayotimizda g‘oyat og‘ir, ota-onalarni eng qiynaydigan soha – aynan ta’lim-tarbiya sohasi, eng kamsitilgan kasb egasi esa o‘qituvchilar edi. Sizlar bilan birga qattiq ishlab, qancha-qancha muammolarni hal qildik, oldimizda turgan to‘siq-g‘ovlarni bartaraf etdik. Hozirgi vaqtda ta’lim sohasi jadal rivojlanayotgan sohaga, o‘qituvchilik esa obro‘-e’tiborli kasbga aylanmoqda.

Buni quyidagi misollarda yaqqol ko‘rish mumkin. Hozirgi vaqtda mamlakatimizdagi 40 ming o‘qituvchi 1 ming dollar, ularning 1 ming 500 nafari 2 ming dollardan ziyod miqdorda maosh olmoqda. Joriy yil yangi formatda o‘tkazilgan “Yil o‘qituvchisi” tanlovining 208 nafar tuman va shahar bosqichi g‘oliblariga ilk bor 616 million so‘mdan mukofot berildi. Bunday rag‘batlantirish mexanizmlari kelgusi yilda bog‘cha tarbiyachilari va texnikum ustalari faoliyatiga ham joriy etiladi.

So‘nggi o‘n yilda yurtimizda 1 million 800 ming o‘rinli bog‘cha, 1 million 500 o‘rinli maktablar barpo etganimiz, 10 mingdan ziyod bog‘cha va maktabni zamonaviy ko‘rinishga keltirganimiz tariximizda misli ko‘rilmagan natijalardir. Prezident, ixtisoslashgan va ijod maktablari kabi mutlaqo yangi namunadagi ta’lim dargohlari paydo bo‘lgani, oliy o‘quv yurtlari soni 77 tadan 205 taga o‘sib, ulardagi qamrov 45 foizga yetgani ham albatta katta ijobiy o‘zgarishdir.

Sohada xususiy sektor izchil rivojlanib, sog‘lom raqobat muhiti shakllanmoqda. Eng muhimi, ana shunday sharoitda ishlash, bilim va malakasini oshirish hamda namoyon etishga qodir bo‘lgan yangi pedagoglar avlodi maydonga chiqmoqda.

Ta’lim islohoti yo‘lidagi bunday ulkan yutuqlarimiz bilan har qancha faxrlansak arziydi.

Tabiiyki, bularning barchasi o‘quv-tarbiya ishlarining sifati va samarasini oshirishga xizmat qilmoqda. Masalan, 2026-yilda yurtimiz o‘quvchilari xalqaro olimpiadalarda 228 ta medalni qo‘lga kiritgani, jumladan, mamlakatimizda bo‘lib o‘tgan xalqaro kimyo va informatika olimpiadalarida o‘g‘il-qizlarimiz yuqori o‘rinlarni egallagani g‘oyat quvonarlidir.

Bir necha kun oldin qadimiy Samarqand shahrida yakuniga yetgan Butunjahon shaxmat hamda parashaxmat olimpiadalarida g‘olib va sovrindor bo‘lib, Vatanimiz shuhratini dunyoga tarannum etgan azamat yoshlarimizning tom ma’noda tarixiy yutuqlarni qo‘lga kiritishida sizlarning hissangiz beqiyos ekanini el-yurtimiz yaxshi biladi va yuksak qadrlaydi.

Bu yil o‘quvchilik davrida xorijiy til va fan sertifikatiga ega bo‘lgan farzandlarimiz soni 100 ming nafarga yetdi, 5 mingga yaqin maktab bitiruvchisi esa oliygohlarga kirishda eng yuqori ball to‘pladi.

Nufuzli PISA reytingida 15 yoshli o‘quvchilarimiz tabiiy fanlarni o‘zlashtirish bo‘yicha 32 pog‘ona yuqori ko‘tarilib, 48-o‘rinni egallagani ham e’tiborga loyiq, albatta.

Oliygohlarimizdagi 185 ta ta’lim dasturi xalqaro akkreditatsiyadan o‘tgani, xorijiy universitetlar bilan hamkorlikda 441 ta qo‘shma ta’lim dasturi yo‘lga qo‘yilgani ham salmoqli ko‘rsatkichdir.

Hurmatli yurtdoshlar!

Biz kelgusi o‘n yilni mamlakatimiz uchun milliy yuksalish davri sifatida belgilab, oldimizga yanada ulkan maqsadlar qo‘ymoqdamiz.

Milliy yuksalishning tayanch asosi – maktab, texnikum va oliygohlar ekanini siz, azizlar albatta yaxshi tushunasiz. Shu bois, bu borada biz, avvalo, sizlarga – muhtaram ustoz va murabbiylarimizga tayanamiz. Ta’lim-tarbiya tizimi vakillari bilan bo‘lib o‘tgan uchrashuvda shu yo‘nalishda oldimizda turgan dolzarb vazifalar va ularning yechimlari haqida atroflicha gaplashib oldik.

Ilg‘or pedagoglarni rag‘batlantirish maqsadida Abdulla Avloniy nomidagi davlat mukofotini ta’sis etishga qaror qildik. Hech shubhasiz, bunday mukofot sizlarni yanada katta yutuq va marralarga ilhomlantiradi, deb ishonaman.

Farzandlarimiz qalbida Vatanga muhabbat, uning taqdiriga daxldorlik hissi va g‘urur tuyg‘usini kuchaytirish, ularni tariximiz va madaniyatimizga hurmat ruhida tarbiyalashga qaratilgan ishlarni endi oilada ham, mahalla, maktab, texnikum va oliygohlarda ham yangicha tashkil etamiz. Bunda hozirgi g‘oyat murakkab zamon talablarini qat’iy hisobga olishimiz zarur. “Yosh avlod tarbiyasi – butun jamiyatning muqaddas burchi, vazifasi” degan ezgu g‘oya har birimizning yuragimizda aks sado berib, kundalik hayotimiz mezoni, mazmuniga aylanishi shart.

Yangi O‘zbekiston yoshlarini “Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!” deb yashaydigan avlod sifatida kamol toptirishning beqiyos ahamiyatini yaxshi tushunadigan siz, hurmatli ustoz va murabbiylar boy bilim va tajribangiz, iste’dod va mahoratingiz bilan bu jarayonlarda faol ishtirok etasiz deb ishonaman.

Sizlarni yana bir bor chin dildan qutlab, barchangizga mustahkam sog‘liq, oilaviy baxt-saodat tilayman.

G‘oyat sharafli va mas’uliyatli faoliyatingizda doimo zafarlar yor bo‘lsin, aziz ustozlar!

Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

JARAYON

TARIXIY ADOLAT:

QATAG‘ON QURBONLARI OQLANMOQDA

Nig‘matilla YO‘LDOSHEV,
O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori

Muazzam Istiqlolimizning 35 yilligi tantanalari shukuhi hamon yurtimizda kezib yuribdi. Tabiiyki, bu ulug‘ ayyom baxsh etgan ko‘tarinkilik, baxtiyorlik, g‘urur va iftixor har bir yurtdoshimiz, ezgu niyatli har qaysi inson qalbida bir umrga qolajak.

Zotan, Davlatimiz rahbari ta’biri bilan aytganda, **Mustaqillik, eng avvalo, bizga shon-u sharafimizni, muqaddas dinimizni, ona tilimizni, unutilayotgan milliy qadriyatlarimizni qaytarib berdi.**

Istiqlol tufayli biz o‘zligimizni angladik, nomi hamisha e’zozda bo‘lgan ota-bobolarimizning munosib vorislari ekanimizni butun dunyoga namoyon etdik.

Albatta, bunday bebaho ne’matni qadrlamoq barchamiz uchun ham qarz, ham farzdir. Zero, milliy Istiqlol osonlikcha qo‘lga kiritilgani yo‘q. Ozodlik istagida, unga yetishmoq yo‘lida minglab ajdodlarimiz jon berdi. Bugungi avlodning muqaddas burchi ham ana shu shahidlarning xotirasini yod etmoq, ularning ruhiga ehtirom ko‘rsatmoqdir.

(Davomi 3-sahifada).

E’ZOZ



HAL QILUVCHI KUCH

Prezident Shavkat Mirziyoyev O‘qituvchi va murabbiylar kuni arafasida “Yangi O‘zbekiston” universitetiga tashrif buyurib, ta’lim sohasidagi islohotlar va kelgusidagi rejalarga bag‘ishlangan ko‘rgazma bilan tanisharkan, ustozlarning jamiyatda tutgan o‘rniga yuksak baho berib, ularning faoliyatini “Hal qiluvchi kuch” deb baholadi.

Bugungi shiddatli asrda ta’lim sifati shunchaki ijtimoiy sohadagi navbatdagi vazifa bo‘lib qolmay, balki iqtisodiyotning raqobatbardoshligi, texnologik suverenitet, yangi ish o‘rinlari yaratilishi va aholi farovonligini belgilab beruvchi bosh strategik omilga aylandi.

Prezidentimiz “Najot – ta’limda”, deb bejiz takrorlamaydi. O‘qituvchilarga munosib sharoit yaratish, ta’lim muassasalarini qurish, jihozlash, chet eldan mutaxassislar jalb qilish va zamonaviy darsliklar joriy etish bo‘yicha amalga oshirilayotgan izchil ishlar so‘nggi yillarda mamlakatimizda ta’limga bo‘lgan qarash va davlat siyosati tubdan o‘zgarganini ko‘rsatadi. Bu islohotlarning eng muhim poydevori – uning mustahkam qonunchilik asoslari yaratilganidadir. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 50-moddasida har bir fuqaroning ta’lim olish huquqi, uzluksiz ta’lim tizimi va inklyuziv bilim olish imkoniyatlari kafolatlandi.

(Davomi 2-sahifada).

BUGUNNING SHE’RI



YANGI ZAMON MUALLIMLARI

Magar Farhod bo‘lsam, Moniylarimsiz,
Dilimning me’mori – Boniylarimsiz!

Qalbim ko‘zgusiga bergan ul oro,
Navoiy, Arastu, yana Mulkoro!

Zaminga yomg‘irlar yog‘dirgan dengiz,
Tiynati – xokisor, himmati – cheksiz...

Tinmayin hikmat-u matallar aytgan,
Kitobdan so‘z boshlab, kitobga qaytgan...

Ustozlar bo‘lmasa, netardi dunyo?!
Oy-yulduz so‘nsa, bil: olam – zim-ziyo!

“Hunarni asrabon netgumdir oxir,
Olib tufroqqamu ketgumdir oxir”.

Bu kun sizga bo‘lsin ta’zim-u kalom,
Yaratgandan bitta mening iltijo(i)m:

– Ustodlar qadrini ayla sarbaland,
Totsin asal-novvot, yemasin hech pand.

Ayirma shogirdin diyonatidan,
Asragil tolibning xiyonatidan...

Beli og‘rimasin, yo‘lamasin bod,
Har ikki olamda yuraversin shod...

O‘tinib so‘ragay sendan Bahodir,
Xizmatiga etgil toabad qodir.

Bahodir OBID

MUNOSABAT

BOSH MAQSAD – INSON QADRI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari Saida Mirziyoyevaning BMT Bosh Assambleyasining 81-sessiyasida nutq so‘zlashi mamlakatimiz siyosiy hayotida alohida voqeaga aylangan bo‘lsa, nutqning mazmun-mohiyati xalqaro maydonda aks sado bermoqda. Ushbu tarixiy chiqishning o‘q ildizi – dunyoning ertangi kuni bugun insonning qadr-qimmati qanday himoya qilinishiga bog‘liq, degan fikrda mujassam. Bu faqat navbatdagi sessiyadagi navbatdagi diplomatik bayonot emas. Bu – O‘zbekistonning bugungi taraqqiyot yo‘li, tashqi siyosiy qarashlari va jamiyat oldiga qo‘yayotgan maqsadlarining umumiy mazmunini ifodalovchi pozitsiyadir.

“Bugun insoniyat oson davrda yashayotgani yo‘q”, degan fikr nutqning umumiy ruhini belgilab beradi. Dunyoda ishonch kamayib, ziddiyatlar kuchayayotgan bir paytda davlatlar o‘zini tashqi dunyodan yopib olishi ham mumkin. Ammo O‘zbekiston tanlagan yo‘l boshqa – ochiqlik, muloqot va hamkorlik. Bu faqat chegaralarning ochiqligi yoki xalqaro aloqalarning kengayishidagina ko‘rinmaydi. Ochiqlik – muammolarni tan olish, ularni yashirmaslik, turfa fikrlarni eshitish va yechim izlashga tayyor turishdir.

Shu ma’noda, “Ochiqlik – zaiflik emas”, degan fikr bugungi dunyo uchun ham, mamlakatimiz hayoti uchun ham muhim xulosani anglatadi.

(Davomi 2-sahifada).

TANITIM

QODIRIY QOHIRADA

Diplomat va tarjimon Otabek ALIMOV bilan suhbat

– Otabek aka, uzoq yillar Tashqi ishlar vazirligi va Misrdagi elchixonamizda diplomatik lavozimlarda ishlab keldingiz. Rasmiy vazifalar barobarida, xalq diplomatiyasiga ham hissa qo‘shdingiz – Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanini tarjima qilish va Misrda chop etishdek sharafli ishga bosh qo‘shdingiz. Bosh qahramon bilan adash bo‘lganingiz ham bu voqeaga alohida ramziylik bag‘ishlaydi. Ushbu tarixiy jarayon haqida taassurotlaringiz biz qatori o‘quvchilarga ham qiziq bo‘lishi, shubhasiz.



(Davomi 7-sahifada).



HAL QILUVCHI KUCH

Boshlanishi 1-sahifada.

Eng muhimi, Bosh qomusimizning 52-moddasida o‘qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalash hamda xalqning ma’naviy-madaniy salohiyatini saqlashning asosi sifatida e’tirof etildi. Davlat o‘qituvchilarning sha’ni, qadr-qimmatini himoya qilishi, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi haqida g‘amxo‘rlik qilishi konstitutsiyaviy burch darajasiga ko‘tarildi. Shu bilan birga, “Ta’lim to‘g‘risida”gi yangilangan Qonun va tarixiy ahamiyatga molik “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi Qonun ustozlarning jamiyatdagi o‘rnini himoyalovchi mustahkam qalqon bo‘ldi. O‘qituvchini kasbiy faoliyatiga aloqador bo‘lmagan yumushlarga – majburiy mehnatga, qishloq xo‘jaligi va obodonlashtirish ishlariga jalb etish, ortiqcha hisobotlar talab qilish qat’iyan taqiqlandi va bunga qarshi javobgarlik choralari belgilandi. Muallim sinfga, o‘z shogirdlari davrasiga qaytdi.

Yoshi ulug‘ avlod va ziyolilar yaxshi eslashadi: ilgari o‘qituvchi va talaba deganda kuzgi-qishki mavsumda oylab paxta dalasida yuradigan, ko‘cha supuradigan va o‘z asosiy vazifasidan uzilib qolgan arzon ishchi kuchi tushunilar edi. Ta’lim sifati va professor-o‘qituvchining sha’ni ikkinchi, hatto uchinchi darajali masalaga aylanib qolgan edi. Shu ma’noda, kechagi kunni xolisona baholamay turib, bugungi yutuqlarning qadriga yetib bo‘lmaydi.

Islohotlar faqat ma’naviy chaqiriqlar bilan cheklanib qolmadi, u muallim va olimning moddiy farovonligi bilan mustahkamlandi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida o‘qituvchining oyligi uning turmushini bekam-u ko‘st ta’minlashi, o‘z kasbidan faxrlanishiga zamin bo‘lishi kerak. Bugun oliy ta’lim tizimida zamonaviy boshqaruv vositalari – KPI (muhim samaradorlik ko‘rsatkichlari) tizimi joriy etilmoqda. Ilmiy maqola yozgan, xalqaro Scopus bazalarida tanilgan, talabalarga yangi innovatsiyalarni o‘rgatgan, chet tilini mukammal bilgan professor-o‘qituvchilarga yuqori ustamalar berilmoqda. Bu professor-o‘qituvchining boshqa ishlarga chalg‘imasdan, bor vaqti va salohiyatini ilm-fan va ta’lim sifatiga bag‘ishlashi uchun berilayotgan eng to‘g‘ri rag‘batdir.

Bugun mamlakatimizda ta’lim mazmuni maktabgacha ta’lim bosqichidan boshlab tubdan yangilanmoqda. “Ilk qadam” dasturi asosida bolalarning nutqi, tafakkuri, muloqot va ijodiy qobiliyatlarini maktabgacha rivojlantirish tizimi yo‘lga qo‘yildi. Pedagogika oliygohlarida yangi avlod o‘qituvchilarini tayyorlashga kirishilib, o‘qituvchilar uchun tanqidiy fikrlash, ijodkorlik va hamkorlikka asoslangan maxsus o‘quv modullari joriy etildi.

Davlatimiz rahbari raisligida 28-sentyabr kuni o‘tkazilgan taqdimotda ta’kidlanganidek, darslikni yaratishning o‘zi yetarli emas, yangi mazmunni ta’lim jarayoniga samarali tatbiq etish uchun pedagoglar tayyorgarligi, o‘qitish usullari va aniq mezonlarga asoslangan baholash tizimi birgalikda takomillashtirilishi shart. Bugungi kunda o‘qituvchining kasbiy bilimlari bilan birga, uning pedagogik mahoratini ham baholovchi sertifikatlash tizimi, shuningdek, o‘quvchilarning faqat yodlash qobiliyatini emas, balki bilish va qo‘llay olish ko‘nikmalarini tekshiruvchi yangi baholash tizimi 5 mingta maktabda muvaffaqiyatli sinovdan o‘tkazilmoqda. Ustozlarga ko‘rsatilayotgan bunday yuksak e’tibor va g‘amxo‘rlik bevosita ularning jamiyatdagi obro‘sini yanada yuksaltiryapti.

Ta’lim tizimidagi islohotlar haqida so‘z ketganda, keyingi yillarda oliy ta’lim masalasiga ustuvor ahamiyat qaratilayotganini alohida mamnuniyat bilan ta’kidlamoqchiman. Yoshlar uchun oliygohlarga kirishda tanlov imkoniyati ko‘paytirildi. Mazkur ta’lim muassasalarida dars beradigan o‘qituvchilarning oyligi sezilarli darajada oshirildi. Fanning muayyan sohasida tadqiqotlar olib borib, aniq natijaga erishayotgan olimlarimizning asosiy qismini professor-o‘qituvchilar tashkil etayotgani, ayniqsa, e’tiborlidir.

O‘qituvchi va murabbiylar haqida so‘z ketganda Vatanimiz ozodligi va xalqimiz baxt-saodati yo‘lida jonini fido qilgan jadidlarning ilmiy-ma’rifiy, adabiy-badiiy merosi biz uchun bugun ham beqiyos ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlamoqchiman. Ulug‘ ma’rifatparvar bobomiz Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘z vaqtida biz uchun ikki emas, to‘rt tilni bilish zarur, deb bong urgan edi va ushbu da’vat hozir ham g‘oyat dolzarb bo‘lib turibdi. Uchinchi Renessans masalasini strategik vazifa sifatida oldimizga qo‘yib, uni milliy g‘oya darajasiga ko‘tarayotgan ekanmiz, maktabgacha ta’lim va maktab ta’limi, oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimi hamda ilmiy-madaniy muassasalarni bo‘lg‘usi Renessansning to‘rt uzviy halqasi sifatida ko‘rilmoqda. Bog‘cha tarbiyachisi, maktab muallimi, professor-o‘qituvchilar va ilmiy-ijodiy ziyolilarimiz esa yangi Uyg‘onish davrining to‘rt tayanch ustunidir.

Prezidentimiz o‘z chiqishlaridan birida ota-onalar bu tashabbusni, albatta, qo‘llab-quvvatlab, yangi Renessansning beshinchi halqasi, beshinchi ustuni bo‘lishini ta’kidlagan edilar.

Shu o‘rinda yana bir masalaga e’tiborni qaratmoqchiman. Xalqaro fan olimpiadalari g‘oliblari va ularning o‘qituvchilarini rag‘batlantirish tizimi yo‘lga qo‘yildi. Ilgari olimpiadada oltin yoki kumush medal olsa, sovrindor o‘quvchiga ham, uni tayyorlagan o‘qituvchiga ham nari borsa, bitta faxriy yorliq berilardi. Hozir ular arzirli pul mukofoti bilan taqdirlanyapti.

Insonning ongi va dunyoqarashi, fikri o‘zgarmasa, jamiyat o‘zgarmaydi. Jamiyat o‘zgarmagan joyda hech qanday ijobiy natija ham, taraqqiyot ham bo‘lmaydi. Odamlarning ong-u tafakkurini o‘zgartiruvchi kuch esa, hech shubhasiz, avvalo, o‘qituvchi-murabbiylar, oliygoh professorlari, ilm-fan arboblaridir. Ular tufayli ta’lim sifatining oshishi iqtisodiyot rivojiga juda katta va ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Sifatli ta’lim mamlakat iqtisodiyotining jahon bozoridagi raqobatbardoshligini oshiradi. Eksportning ko‘payishiga va xorijiy investitsiyalarning jalb qilinishiga yordam beradi. Iqtisodiy o‘sishni tezlashtiradi va yangi tarmoqlarning rivojlanishiga turtki beradi. Sifatli ta’lim olgan insonlarning ish topish imkoniyatlari yuqori bo‘ladi. Bu esa kambag‘allikning kamayishiga ko‘maklashadi.

Davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, bilim va malaka mamlakatning bosh kapitaliga aylanishi shart. Ushbu ulug‘vor yo‘lda o‘qituvchi va murabbiylarga ko‘rsatilayotgan yuksak ehtirom, yaratilayotgan zamonaviy sharoitlar esa Uchinchi Renessansning mustahkam poydevori bo‘lib xizmat qiladi. Zero, ilmga tikilgan har bir sarmoya – millatning porloq istiqboliga qo‘yilgan eng mustahkam poydevordir.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev bejiz kelayotgan o‘n yillikni “O‘zbekistonning oltin davri” deb atamadi. Mamlakatimiz dunyoning eng baxtli, barqaror va yuksak taraqqiy etgan davlatlari qatoridan joy olishi aynan ta’limga, o‘qituvchi va pedagoglarning salohiyatiga, inson kapitaliga tizimli yondashuvimizga bog‘liq. Agar biz milliy iqtisodiyotimiz uchun yuqori malakali, raqobatbardosh va ma’naviyatli kadrlarni tayyorlay olsak, farovonlik va ma’naviy yuksalishga erishamiz. Uchinchi Renessansning mustahkam tayanchi, me’mori va bosh harakatlantiruvchi kuchi – bu fidoyi O‘qituvchi va Murabbiylardir!

Ta’limga, ustozlarga e’tibor bir kunlik yoki bir yillik dastur emas. Bu – millatning kelajagi, uning asriy taqdiridir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev muallim qadri va ta’lim sifatini birinchi o‘ringa qo‘yganida katta hikmat bor. Bugun ushbu e’tibor atrofida jamiyat uyg‘onmoqda, iqtisodiyot transformatsiya bo‘lmoqda, yosh avlod zamonaviy dunyoga mardona qadam tashlamoqda. Toki ustoz qadrlanar ekan, uning ilmiga munosib baho berilar ekan, Uchinchi Renessans orzusi, albatta, real haqiqatga aylanadi.

Iqbol MIRZO



Muallim haqida so‘zim ushbudir:

Muallim kamolot ichra ko‘zgudir.

Abdulla ORIPOV

BOSH MAQSAD – INSON QADRI

Boshlanishi 1-sahifada.

Tinchlik uchun harakat qilish esa kelajak oldidagi mas’uliyatni bildiradi. Nutqdagi eng muhim mezonlardan biri davlat qudratini qayta anglash masalasidir. Davlatning kuchi faqat yalpi ichki mahsulot hajmi, harbiy salohiyat yoki iqtisodiy ko‘rsatkichlar bilan belgilanmaydi. Bu raqamlar muhim, albatta. Ammo ularning ortida inson taqdiri turadi. Oddiy qilib aytganda: Odamning hayoti yaxshilandimi? Farzand sifatli ta’lim olyaptimi? Oila tibbiy xizmatdan qoniqarli foydalanyaptimi? Yoshlar

> **Davlatning qudrati, avvalo, inson qadrini, uning huquq va manfaatlarini qanchalik himoya qila olishi bilan belgilanadi.**
>
> **Saida MIRZIYOYEVA, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari**

o‘z kelajagini qurish uchun imkoniyatga egami? Ayollar o‘z qobiliyati va tadbirkorligini ro‘yobga chiqarishi uchun sharoit bormi? Islohotlarning haqiqiy natijasi ana shu savollarga beriladigan javob bilan o‘lchanadi. Shu jihatdan, O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan o‘zgarishlarning markaziga “inson” tushunchasining qo‘yilgani nutqda aniq ifodalandi.



Saida Mirziyoyeva BMT minbarida Yangi O‘zbekistondagi islohotlar, erishilgan natijalar statistikasini keltirib o‘tdi. So‘nggi o‘n yilda aholining xarid qobiliyati ikki barobar oshgani, iqtisodiyot hajmi 50 milliard dollardan 147 milliard dollarga yetgani, 150 milliard dollardan ortiq xorijiy investitsiya jalb qilingani, eksport qariyb uch barobar ko‘paygani qayd etildi. Kambag‘allik darajasining 4 foizga tushgani va qariyb 10 million nafar insonning kambag‘allikdan chiqarilgani esa iqtisodiy siyosatning eng muhim mezonlaridan biri – odamlar turmushidagi ijobiy o‘zgarish masalasiga jiddiy e’tibor qaratilayotganini ko‘rsatadi.

Maktabgacha ta’lim qamrovi 27 foizdan 78 foizga, oliy ta’lim qamrovi 9 foizdan 45 foizga yetgani, o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi 66 yoshdan qariyb 10 yilga uzaygani, onalar va go‘daklar o‘limi to‘rt baravar kamaygani – bularning har biri millionlab oilalarning hayoti bilan bog‘liq. Demak, islohotning eng katta hisoboti statistik jadvalda emas, oilalarning kundalik hayotida namoyondir.

Administratsiya rahbari o‘z nutqida bolalar masalasiga alohida urg‘u bergani bejiz emas. “Bola – davlatning eng katta mas’uliyati”. Bu fikrning zamirida juda katta haqiqat bor: bugun tug‘ilgan bola ertangi O‘zbekistonning fuqarosi, mutaxassisi, olimi, tadbirkori, shifokori yoki muhandisidir. Shuning uchun bolaning sog‘lom tug‘ilishi, yaxshi ta’lim olishi, xavfsiz va munosib muhitda voyaga yetishi – faqat ijtimoiy siyosat masalasi emas. Bu mamlakatning uzoq muddatli taraqqiyot strategiyasidir. Kelajak bugun bolaga qanday sharoit yaratishimizdan boshlanadi.

O‘zbekistonning BMT minbaridagi pozitsiyasida Markaziy Osiyo mavzusi ham alohida o‘rin egalladi. Yaqin tarixga nazar tashlasak, mintaqada chegaralar, suv resurslari, transport va boshqa masalalar atrofidagi murakkabliklar davlatlar o‘rtasidagi munosabatlarga salbiy ta’sir ko‘rsatganini ko‘ramiz. Bugun esa mintaqada boshqa kayfiyat shakllanmoqda. Davlatlar bir-birini faqat qo‘shni sifatida emas, balki sherik sifatida ko‘rishga intilmoqda. Bu o‘zgarishning ahamiyati katta. Chunki zamonaviy dunyoda bir davlatning taraqqiyoti qo‘shnisining muammosidan alohida yashay olmaydi. Savdo yo‘llari, suv, energetika, ekologiya, transport, xavfsizlik – bularning barchasi o‘zaro bog‘liq. Shuning uchun Markaziy Osiyoning bugungi hamkorlik ruhi nafaqat mintaqa xalqlari, balki jahon xalqaro hamjamiyati uchun ham muhim tajriba bo‘la oladi.

Nutqda Afg‘oniston masalasiga yondashuv insonparvarlikning yorqin namunasi bo‘ldi. Bu mamlakatni faqat xavf manbayi sifatida ko‘rish muammoni hal etmaydi. Chunki u yerda ham siz-u bizdek odamlar, oilalar, bolalar va kelajagini tinch hayotda qurishni istayotgan millionlab insonlar yashaydi. Shu sababli, Afg‘oniston masalasida muloqot, iqtisodiy va ijtimoiy imkoniyatlarni kengaytirish, tinch hayot uchun sharoit yaratish masalalari muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma’lumki, Orol insonning tabiatga o‘gay munosabati qanday oqibatlarga olib kelishi mumkinligining achchiq misolidir. Ammo O‘zbekiston bugun bu hududga faqat fojiadan iborat manzara sifatida qaramayapti. Qurigan dengiz tubida yashil hududlar barpo etish, suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish, qayta tiklanuvchi energiyani rivojlantirish – muammo qanchalik katta bo‘lmasin, unga munosib yechim topish kerak. Nutqda Orol fojiasi butun insoniyatga tegishli saboq sifatida tilga olindi.

Bugungi kunning eng dolzarb mavzularidan biri – sun’iy intellekt. Bir necha yil avval tasavvur qilish qiyin bo‘lgan texnologiyalar bugun kundalik hayotimizga jadal kirib kelmoqda. U ta’lim, tibbiyot, ishlab chiqarish, davlat boshqaruvi va biznesda katta imkoniyatlar yaratmoqda. Ammo har qanday katta imkoniyat katta mas’uliyatni ham talab qiladi. Asosiy savol shunday: Texnologiya inson hayotini qanday yaxshilaydi? Sun’iy intellekt insonning huquq va erkinliklari, xavfsizligi, teng imkoniyatlari va shaxsiy daxlsizligiga zarar yetkazmasligi kerak. Texnologik taraqqiyotning ma’nosi insonni



Bahora AHMEDOVA, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi rahbari maslahatchisi

texnologiyaga moslashtirish emas, balki texnologiyani inson manfaatiga xizmat qildirishdir. Bu masalada xalqaro hamkorlik va umumiy qoidalar tobora muhimlashib boradi.

Nutqning yana bir muhim jihati – qonun ustuvorligi masalasidir. “Hokimiyat qonundan ustun emas” degan tamoyil davlat va jamiyat hayotidagi eng muhim mezonlardan biri. Chunki inson sudga murojaat qilganida uning kimligi emas, huquqi muhim bo‘lishi kerak. Adolatga ishonch – jamiyat barqarorligining muhim poydevoridir. Shu ma’noda, Toshkent xalqaro moliya markazida ingliz huquqi prinsiplariga asoslangan alohida xalqaro tijorat sudini tashkil etish tashabbusi O‘zbekistonning huquqiy muhitni yanada rivojlantirishga qaratilgan sa’y-harakatlari bilan bog‘liq.

Ayollar huquqi va imkoniyatlari masalasi ham bugungi taraqqiyotning ajralmas qismi hisoblanadi. Bolalar mehnati va tizimli majburiy mehnatga barham berish, oiladagi zo‘ravonlik uchun javobgarlikni kuchaytirish, ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash – bularning barchasi inson qadrini ta’minlashga qaratilgan choralardir. Xotin-qizlarning bilim olishi, kasb egallashi, tadbirkor bo‘lishi yoki davlat boshqaruvida faol ishtirok etishi – bu, faqatgina shaxsiy yutuq hisoblanmaydi. Birgina ayolning natijasi oilaning, jamiyatning, va albatta, mamlakatning imkoniyatlarini kengaytiradi. Bugun parlament a’zolarining 39 foizini ayollar tashkil etayotgani ham bu yo‘nalishdagi o‘zgarishlarni yaqqol ko‘rsatadi.

Nutqning xalqaro siyosatga oid qismi barchaga bir oddiy haqiqatni anglatadi: bugungi global muammolarni biror davlat yolg‘iz hal qila olmaydi. Iqlim o‘zgarishi, pandemiya chegarani tan olmaganidek, terrorizm, kiberxavfsizlik, ekologik muammolar, suv tanqisligi va boshqa transmilliy tahdidlar ham sarhad bilmaydi. Bu borada BMT kabi universal muloqot maydonlarining roli va o‘rni muhim ekanini unutmaslik kerak. O‘zbekistonning BMTni isloh qilish, uning qarorlarini amalga oshirish salohiyatini kuchaytirish, barcha davlatlar ovozi eshitiladigan tizimni rivojlantirish haqidagi qarashlari ham ana shu ehtiyoj bilan bog‘liq. Xalqaro huquqning umumiy qoida sifatida e’tirof etilishi haqidagi fikr esa yana bir muhim tamoyilni ilgari suradi: qoidalar hamma uchun bir xil bo‘lsagina, adolatga ishonch mustahkam bo‘ladi.

* * *

Tarixiy nutqning eng muhim jihati shundaki, unda “inson qadri” tushunchasi turli masalalarni birlashtiruvchi umumiy mezon sifatida namoyon bo‘ldi. Tinchlik, iqtisodiy o‘sish, ta’lim, sog‘liqni saqlash, ekologiya, texnologiya, va albatta, qonun inson manfaatiga qaratilgan bo‘lishi lozim. Bir so‘z bilan aytganda, nutqning mohiyatida taraqqiyotning ma’nosi – raqamlarni ko‘paytirish emas, inson imkoniyatlarini kengaytirishdir, degan ezgu fikr mujassam. To‘g‘ri, bugun dunyo oldida juda ko‘p savollar turibdi. Ularning ayrimlariga tez, ayrimlariga esa yillar davomida javob izlanadi. Ammo bitta mezon doim o‘zgarmasligi kerak: har qanday qarorning markazida inson va uning kelajagi turishi lozim.

TARIXIY ADOLAT:

QATAG‘ON QURBONLARI OQLANMOQDA

Boshlanishi 1-sahifada.

Muhtaram Prezidentimiz Mustaqilligimizning 35 yilligiga bag‘ishlangan asosiy tantanadagi so‘zlarini ham erkin hayot uchun jonini fido qilgan ulug‘ ajdodlarimiz xotirasiga ta’zim bajo keltirishdan boshlaganlari bejiz emas.

Shu o‘rinda bir jihatni qayd etish joiz. Bugun inson qadrini ulug‘lash g‘oyasini ro‘yobga chiqarish davlatimiz va jamiyatimizning eng ezgu va oliy maqsadiga aylangan.

Bu maqsadga erishishning hal qiluvchi omillaridan biri esa xalqimizning tarixiy xotirasini tiklash, millatimiz va mamlakatimiz saodati yo‘lida shahid ketgan ajdodlarimizning pokiza nomlarini abadiylashtirish, ularning xotirasiga hurmat bajo keltirishdir.

Albatta, Davlatimiz rahbari qayd etganlaridek, **Vatan ozodligi va milliy Istiqlol yo‘lida jonini fido qilgan Behbudiy, Munavvar qori, Fitrat, Qodiriy, Cho‘lpon kabi jadid bobolarimizning hurriyat haqidagi orzu-niyatlari bugun Yangi O‘zbekistonda to‘liq ro‘yobga chiqmoqda.**

Buyuklarimizning bebaho merosini o‘rganish, ularning nomini abadiylashtirish borasida misli ko‘rilmagan ishlar amalga oshirilmoqda.

Eng muhimi, qat’iy siyosiy iroda tufayli yaqin o‘tmishni tadqiq va talqin qilishda ham xolislik va adolat ta’minlanmoqda.

Hatto Mustaqillik yillarida ham ismini-da aytishga “ehtiyotkorlik” bilan yondashiladigan millat fidoyilari, haqiqiy qahramonlar nomi oqlanmoqda.

Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 8-oktyabrdagi “Qatag‘on qurbonlarining merosini yanada chuqur o‘rganish va ular xotirasini abadiylashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoyishi bu boradagi ishlarni har jihatdan yangi bosqichga olib chiqdi.

Birgina misol: keyingi besh yilda Bosh prokuratura tomonidan 1920–1950-yillarda siyosiy qatag‘onlar qurboni bo‘lgan qariyb 1 ming 400 nafar shaxsni oqlash yuzasidan Oliy sudga protestlar kiritildi.

Ma’lumki, siyosiy qatag‘on qurbonlarini oqlash va reabilitatsiya qilish nafaqat muayyan shaxslarning buzilgan huquqlarini, balki xalqning tarixiy xotirasini tiklash, haqiqatni qaror toptirish va adolatni yuzaga chiqarishning muhim omillaridan biridir.

Sho‘rolar davridagi ommaviy siyosiy qatag‘onlar oqibatida minglab yurtdoshlarimiz asossiz ravishda ta’qib qilindi, qamoqqa olindi, qatl etildi, surgun qilindi yoki mol-mulki musodara etildi. Ularning ko‘pchiligiga “aksilinqilobchi”, “bosmachi”, “millatchi”, “xalq dushmani” kabi siyosiy tamg‘alar bosildi.

...Oqlanganlar orasida milliy istiqlolchilik harakati va milliy davlatchilik tarixida muhim o‘rin tutgan, o‘z davrida xalq manfaati yo‘lida faoliyat yuritgan bir qator taniqli shaxslarning borligi alohida ahamiyat kasb etadi.

Ulardan biri **Ibrohim Chakabayev (Laqay)**dir. U Turkiston istiqlolchilik harakati tarixida muhim iz qoldirgan shaxs sifatida tarixdan o‘rin olgan. Uning nomi uzoq yillar davomida sovet davri tarixshunosligida biryoqlama va salbiy talqin qilindi. Oqlov jarayoni esa Ibrohim Laqay va uning safdoshlari faoliyatiga arxiv hujjatlari va xolis tarixiy yondashuv asosida qayta nazar tashlash imkonini berdi.

Nosirxonto‘ra Sayyid Kamolxonto‘ra o‘g‘li ham o‘z davrining siyosiy, ma’rifiy va diniy hayotida faol ishtirok etgan, milliy va ma’naviy qadriyatlarni asrashga intilgan ziyolilardan biri edi. Uning nomi ham qatag‘on davrida siyosiy ayblovlar bilan bog‘langan. Nosirxonto‘raning oqlanishi milliy va diniy-ma’rifiy hayotimiz tarixida o‘chirib tashlangan sahifalarni tiklash yo‘lidagi muhim qadam hisoblanadi.

Shuningdek, **Mufti Sadriddinxon Sharif-xo‘jayev**ning oqlanishi ham katta tarixiy ahamiyatga ega. U o‘z davrida diniy ilm va ma’rifat sohasida faoliyat yuritgan, jamiyatning ma’naviy hayotida munosib o‘rin tutgan ulamolardan biri edi.



Qatag‘on qurbonlari orasida davlat va huquq tizimida mas’uliyatli lavozimlarda ishlagan, o‘z kasbiy faoliyati bilan mamlakat taraqqiyotiga xizmat qilgan shaxslar ham bor edi. Xususan, **Sa’dulla Qosimov** O‘zbekiston Oliy sudining birinchi raisi sifatida sud-huquq tizimi shakllanishining dastlabki davrida faollik ko‘rsatgan.

Badriddin Sharipov ham qatag‘on siyosati qurboni bo‘lgan davlat va huquq sohasi vakillaridan biri sifatida tariximizda alohida o‘rin tutadi. U O‘zbekiston Bosh prokurori o‘rinbosari sifatida huquq-tartibot va qonuniylikni ta’minlash tizimida xizmat qilgan. Uning taqdiri o‘sha davrda davlat apparatida xizmat qilgan ko‘plab mutaxassislar ham siyosiy ta’qiblardan chetda qolmaganini ko‘rsatadi. Badriddin Sharipovning oqlanishi uning sha’ni va huquqlarini tiklash bilan birga, sovet davridagi huquqiy tizim va siyosiy qatag‘onlar tarixini yanada chuqurroq o‘rganishga xizmat qiladi.

Bu insonlar ishiga oid hujjatlarni o‘rganish jarayonida ham huquqiy, ham ma’naviy, ham insoniy nuqtayi nazardan o‘ta dahshatli voqeliklarni ko‘rish mumkin.

E’tibor bering: o‘limga hukm qilinganlarning biron-bir aybi belgilangan tartibda sudda isbotlanmagan, hatto ular sudsiz ham javobgarlikka tortilgan.

Bu shaxslar dastlabki tergov davrida o‘zlariga qo‘yilgan ayblovlarni inkor etsa-da, ularni ayblash uchun soxta guvohlarning ko‘rsatmalari asos qilib olingan.

Ayrim “aybdorlar” faqatgina o‘zbek tilini bilgan va arab alifbosida yozma tushuntirish bergan. Shunga qaramasdan, tergov harakatlari boshqa tillarda olib borilgan, ularga hech kim tarjimon yoki tegishli mutaxassis xizmatidan foydalanish imkonini bermagan. Xulosa shuki, hech bir asosli dalilsiz inson o‘limga mahkum etilavergan.

Albatta, qatag‘on qurboni bo‘lgan bunday tarixiy shaxslar haqida, ularning faoliyati, merosining ahamiyati to‘g‘risida olimlarimiz, tarixchi va mutaxassislar salmoqli izlanishlarni olib bormoqda, jamoatchilik bunday ishlarning amaliy natijalaridan muntazam xabardor qilinmoqda.

Biroq, masalaning boshqa jihatiga ham alohida e’tibor qaratish lozim, degan fikrdamiz.

Gap shundaki, Davlatimiz rahbari doimo marhumlar, ayniqsa, el-yurt manfaatlari yo‘lida jonini tikkanlar ruhiga ehtirom haqida gapiradilar, bu borada muhim vazifalarni belgilab beradilar. Jumladan, qatag‘on qurbonlari xotirasini abadiylashtirish bo‘yicha muhim tashabbuslarning muntazam ilgari surilayotgani ham bejiz emas. Bizningcha, avvalo, bunday tashabbuslarning ahamiyatini chuqur tushunishimiz, qalbdan his qilishimiz va yoshlarga atroflicha tushuntirishimiz zarur. Zero, ko‘plab millat va elatlar qatori bizning xalqimiz ham yaqin o‘tmishdagi mustamlakachilik davrida sodir etilgan keng ko‘lamli mudhish qatag‘onni unutishga hech kimning haqqi yo‘q.

Sovet qatag‘onlarining fojiali jihatlaridan biri ham shundaki, mustabid tuzumning tig‘i birinchi galda millatimizning eng sara, ziyoli, noyob iste’dodli, hurfikrli, xalqparvar, erksevar farzandlari ko‘ksiga qadaldi. Ularning yagona aybi millati va yurtini haddan ziyod sevishi, uning erkin va farovon yashashini orzu qilishi edi. Binobarin, ular xotirasini abadiylashtirishga e’tibor ham hikmatdan xoli emas.

Afsuski, bugun dunyoning turli nuqtalarida o‘sha davrlarni qo‘msaydigan guruhlar paydo bo‘lmoqda, mustabid tuzum uslublarini ideallashtirishga intilish kuchaymoqda, qatag‘on kampaniyalari tepasida turganlarning nomlari gohi oshkora, gohida pinhona “hurmat” bilan tez-tez tilga olinmoqda.

Xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz shahid ketgan ajdodlarimiz hayoti va faoliyati misolida haqiqatni anglab yetmasa, bugungidek erkin hayotning qadrini to‘liq anglamasligi, turli fitnalarning navbatdagi qurboni bo‘lishi mumkin.

Shu bois, qatag‘on qurbonlari xotirasini yod etish va ularning mustaqilligimiz yo‘lidagi harakatlarini, orzu-armonlarini keng targ‘ib etish ishlari umummilliy harakatga aylanishi zarurligi ta’kidlanmoqda.

Darhaqiqat, qatag‘onning dahshatli soyasi tushmagan biror soha, tarmoq yoki mahalla qolmagan.

E’tibor bering: sho‘rolar qatag‘onlarining dahshatli davrida minglab begunohlar qatorida prokuratura tizimi vakillari ham ko‘plab musibatlarga duchor bo‘ldi.

Ori va nomusini har narsadan ustun qo‘yib, nohaqliklarga qarshi borgan, qat’iyat ko‘rsatgan, chin ma’noda dovyurak va vatanparvar mahalliy xodimlarning qariyb 200 nafariga jinoyat ishi qo‘zg‘atilgan, 30 nafari esa otib tashlangan.

Alamlisi shundaki, qatag‘onga uchraganlarning aksariyati nafaqat sud-huquq tizimining fidoyi vakillari, balki el-yurt taqdiri uchun kuyungan, uning saodati yo‘lida borini berishga tayyor bo‘lgan millatimizning sadoqatli, salohiyatli, noyob iste’dodli farzandlari edi.

Jumladan, 1920–1924-yillarda Buxoro Xalq Sovet Respublikasi adliya xalq noziri va respublika prokurori bo‘lib ishlagan **Abdurahim Yusufzoda** taraqqiyparvarlarning “Yosh buxoroliklar” harakati yetakchilaridan biriga aylangan.

Uning tashabbusi bilan Buxoro shahrida uchta sud binosi barpo etilgan, sudlov organlarida birinchi bor apellyatsiya organi – “Taniz mahkamasi” (“Arz mahkamasi”) tashkil etilgan, sudyalarni olim, fozil, nasl-nasabli nomzodlardan saralab tayinlash yo‘lga qo‘yilgan, tarixiy-me’moriy obidalardan hibsxona sifatida foydalanish amaliyotiga barham berilib, ular qayta tiklanib, Buxoro madaniyat muzeyiga aylantirilgan.

Aynan Abdurahim Yusufzodaning sa’y-harakatlari bilan 1924-yilda Moskvada rus va o‘zbek tilida “Бухарская жизнь” nomli jurnal hamda O‘zbekistondagi ilk kinostudiya – “Buxoro-Rus kinojamiyati” tashkil etilgan.

Abdurahim Yusufzoda 1924-yilda Rossiya havo floti – “Добролёт” bilan shartnoma imzolab, Buxoro-Xiva-Toshkent-Olmaota yo‘nalishlarida havo qatnovi va pochtani yo‘lga qo‘ygan, “Юнкерс” firmasidan oltita samolyot xarid qilinishiga erishgan. Afsuski, bu millatparvar shaxs 1936-yilda NKVD xodimlari tomonidan hibsga olingan va 1937-yilda otuvga hukm qilingan.

Qatag‘on yillarida nohaq ayblangan yana bir prokuror **Mirzo Qo‘qonboy Abduxoliqzoda** arab, fors, rus va turk tillarini mukammal bilgan. U 1916-yilda Jizzax qo‘zg‘oloni qatnashchilari ustidan sud jarayonida 30 dan ortiq jizzaxliklarni o‘limdan saqlab qolgan.

O‘zbekiston Adliya xalq komissarligi huzuridagi prokuraturaning tergovchisi, Zarafshon okrug katta tergovchisi, Buxoro prokuraturasi tergovchisi lavozimlarida ishlagan Mirzo Qo‘qonboy Abduxoliqzodaning uyida jadidlar – Vadud Mahmud, Cho‘lpon, Munavvar qori Abdurashidxonov kabi ma’rifatparvarlar tez-tez uchrashib turishgani, el-yurt qayg‘usi ularni birlashtirgani haqida ham ma’lumotlar bor.

Darvoqe, Mirzo Qo‘qonboy Abduxoliqzoda nafaqat prokuror, balki yetuk olim, ziyoli ham bo‘lgan, deyish mumkin. Zotan, u “Jizzax qo‘zg‘oloni”, “Namoz shaykasi”, “Tog‘ qizi”, “Istadjon”, “Qamchindan qon tomadi” kabi tarixiy voqealarga boy roman, qissa, hikoya va ocherklar yozgan, biologiya, antropologiya, zoologiya, botanika darsliklarini rus tilidan o‘zbek va tojik tillariga tarjima qilgan.

Umuman olganda, qatag‘onga uchragan o‘nlab xodimlar davlat va siyosat arbobi darajasiga yetgan edi. Bugungi kunda ular haqida zalvorli kitoblar, kalendar-taqvim yaratildi, shuningdek, har biri bo‘yicha alohida monografiya va hujjatli filmlar tayyorlanmoqda. Ularning oilasi va boshqa yaqin kishilari ro‘yxati tuzilib, ijtimoiy ahvoli o‘rganilyapti. Ko‘cha, mahalla va maktablarga juvonmarg millat oydinlari nomlarini berish hamda yodgorlik lavhalari o‘rnatish ishlari olib borilmoqda.

Bundan tashqari, Bosh prokuraturaning “O‘zbekiston prokuraturasi tarixi muzeyi”da alohida burchak ajratilib, unda qatag‘on qilingan prokuratura xodimlarining ma’lumotlari va tegishli tarixiy ko‘rgazmalar joylashtirildi.

Prokuratura tizimida ishlab, nohaq ayblangan va qatag‘on qilinganlarga oid bunday ma’lumotlar ko‘p ekanini o‘zimiz ham yaqinda anglab yetdik. Asosiysi, ularning har birining tarjimayi holi bugungi jamiyatimiz uchun ham muhim ahamiyatga ega bo‘lgan ibratli sahifalarga boy.

Tabiiyki, Prezidentimiz ko‘rsatmalaridan keyin biz nohaqlik azoblarini tortgan tizimimiz xodimlarining xotirasini abadiylashtirish, ularning jasoratini yosh avlodga yetkazish bo‘yicha aniq ishlarni boshladik. Xususan, maxsus Farmoyish bilan qatag‘on qurboni bo‘lgan prokuratura xodimlarining nomlarini tiklash va xotirasini abadiylashtirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi”, unda belgilangan vazifalarni amalga oshirish bo‘yicha Bosh prokuror o‘rinbosari rahbarligida ishchi guruh tarkibi tasdiqlandi. Guruhga prokuratura xodimlaridan tashqari, turli ilmiy muassasalar, muzeylar va boshqa tuzilmalar vakillari kiritilgani muhim ahamiyatga ega.

Fursatdan foydalanib, shuni mamnuniyat bilan qayd etmoqchimanki, bu borada hamkorlik qilish bo‘yicha takliflarimiz Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi rahbariyati tomonidan ham qabul qilindi.

Bosh prokuratura tomonidan tayyorlangan va qatag‘onga uchragan tizimimiz xodimlariga bag‘ishlangan “Tarixiy xotira beqiyos” nomli 2 jildlik kitob ana shunday hamkorlikning ilk natijalaridandir.

Qayd etish o‘rinliki, bir maqola yoki tadqiqot doirasida qamrab olish imkonsiz bo‘lgan bugungi jarayonlarning mohiyatini, xayrli jihatlarini osongina ta’riflab bo‘lmaydi. Ayniqsa, bir begunohni oqlash o‘tmishni shunchaki taftish qilish emas. Oqlov inson qadr-qimmatini tiklash, qonunsizlikning oqibatlarini tan olish va jamiyatda adolat mezonlarini mustahkamlashdir. O‘z navbatida, qatag‘on qurbonlarining nomini tiklash orqali ularning avlodlariga ham tarixiy haqiqat qaytarilmoqda.

Shu bois, so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan oqlov jarayonlarini xalqimizning tarixiy xotirasini tiklash yo‘lidagi muhim voqea sifatida baholash mumkin. Bu jarayon har bir insonning huquqi, sha’ni va qadr-qimmati daxlsiz ekanini yana bir bor namoyon etadi.

Oqlangan har bir inson tarixning tiklangan bir sahifasidir. Har bir tiklangan nom esa xalq xotirasidagi bir adolatsizlikning bartaraf etilganidan dalolatdir. Shu ma’noda, qatag‘on qurbonlarining oqlanishi nafaqat ularning, balki butun jamiyatimizning tarixiy adolati tantanasidir.

FAXR

SHAXMAT MAMLAKATI BO‘LAMIZ!

Ko‘hna va hamisha navqiron Samarqand shahrida o‘tkazilgan Butunjahon shaxmat olimpiadasi musobaqasida 200 dan ortiq mamlakatdan qariyb 2 ming nafar shaxmatchi, jumladan, jahonning eng kuchli grossmeysterlari va amaldagi chempionlar orasida g‘olib bo‘lish har kimga ham nasib etavermaydi. Ana shunday shiddatli va murosasiz raqobat maydonida O‘zbekiston bayrog‘ini eng baland cho‘qqiga ko‘tarish chinakam jasorat, yuksak aql-zakovat va mustahkam iroda namunasidir. Eng muhimi, ushbu ulug‘ g‘alabaga o‘z Vatanimizda, millionlab yurtdoshlarimiz ko‘z o‘ngida erishilgani unga o‘zgacha ruh va shukuh bag‘ishladi. Qahramonlarimiz amaldagi Olimpiada chempioni – Hindiston jamoasini taslim qilishdi.



Qadimiy shaxmat maktabi va ko‘plab grossmeysterlarga ega bo‘lgan Xitoy jamoasi ustidan tarixiy g‘alaba qo‘lga kiritildi. Dunyo reytingida birinchi o‘rinni egallab kelayotgan, olti karra Olimpiada chempioni bo‘lgan AQSH jamoasidan ham ustun kelishdi.

Prezidentimiz g‘oliblarni taqdirlash marosimida har bir chempion ortida uning mehribon ota-onasi, birinchi ustozi, mahoratli murabbiylari va qo‘llab-quvvatlagan butun bir jamoa turganini alohida ta’kidlab o‘tdi.

Shu bois, qo‘lga kiritilgan buyuk zafar – barcha ustozlarning ham mashaqqatli mehnati mahsulidir. Davlatimiz rahbari o‘zbek shaxmatida yangi davrni boshlab bergan jahon chempioni Rustam Qosimjonovga alohida murojaat qilib, ustozning orttirgan tajribasi bugun yangi avlodga muvaffaqiyatli o‘tib borayotganini qayd etdi: “Ustozning eng katta g‘alabasi – shogirdlarining undan ham baland marralarga chiqishidir!”

Mamlakatimizda keng nishonlanadigan O‘qituvchi va murabbiylar kuni arafasida ustozlarning bunday e’tirof etilishi ramziy ma’noga ega. Zero, bugungi kunda o‘zbek sporti, jumladan, shaxmatida ham avlodlar davomiyligi va kuchli maktab yaratilgani yaqqol ko‘zga tashlanmoqda.

Musobaqa va uning yuqori saviyada o‘tkazilgani xalqaro miqyosda ham o‘z bahosini oldi. Jumladan, O‘zbekiston shaxmat federatsiyasi Xalqaro shaxmat federatsiyasi (FIDE) tomonidan “Eng yaxshi federatsiya” deb e’tirof etildi.

Shuningdek, Rustam Qosimjonov FIDEning faxriy vitse-prezidenti, Hulkar Tohirjonova esa Markaziy Osiyo bo‘yicha mintaqaviy prezidenti etib saylandi. Prezidentimiz mazkur yuksak nomlarni O‘zbekistonning haqiqiy “shaxmat mamlakati” sifatida jahon maydonidagi nufuzi va obro‘si kun sayin oshib borayotganining yana bir yaqqol dalili sifatida baholadi.

Yutuqlar tasodif emas. To‘rt yil oldin Hindistonning Chennay shahrida qo‘lga kiritilgan ilk tarixiy oltin medal, 2024-yil Budapeshtdagi faxrli uchinchi o‘rin va bugun Samarqandda qo‘lga kiritilgan ikkinchi olimpiada chempionligi – bularning har birida aniq mantiqiy bog‘lanish bor. “Bu – maktab, bu – tizim, bu – o‘zbek shaxmatining yangi darajasi”, – dedi Prezidentimiz.

Avvallari yurtimizda iqtidorlar ko‘p bo‘lgan, biroq ularni birlashtiradigan tizim yetishmas edi. 2018-yilda qabul qilingan maxsus qarordan so‘ng maktablarda shaxmat o‘qitish, malakali murabbiylar tayyorlash va klublarni rivojlantirish yo‘lga qo‘yildi. Shu o‘rinda Davlatimiz rahbari kelgusidagi eng ulug‘vor maqsadni e’lon qildi: “Yangi O‘zbekistonni nafaqat Olimpiada chempioni, balki dunyo shaxmat markaziga aylantiramiz!”

O‘zbekiston yoshlarining zafarlari – Yangi O‘zbekiston ravnaqining munosib ifodasidir. Javohir Sindorov, Nodirbek Abdusattorov va boshqa yosh chempionlarimizning g‘alabalari ortida minglab tengdoshlarining orzu-umidlari va shijoati yotibdi. Zehn o‘tkirligi va aql bovar qilmas matonat talab qiluvchi bu sport turida erishilgan natijalar shuni anglatadiki, O‘zbekiston farzandlari har qanday sohada – xoh ilm-fan, xoh san’at yoki sport bo‘lsin – eng yuqori cho‘qqilarni zabt etishga qodir. Bizning asosiy boyligimiz mana shunday bilimli va azm-u shijoatli yoshlarimizdir. Galdagi vazifa – ushbu muvaffaqiyatlar zanjirini uzmaslik va shaxmatning har bir xonadonga, har bir maktabga kirib borishini ta’minlashdir.

O‘ktam HAMRALIYEV

XALQARO FORUM

TINCHLIK VODIYSI

Uzoq yillar davomida Markaziy Osiyodagi geosiyosiy keskinliklar, mojarolar o‘chog‘i sifatida ko‘rilgan hamda chegaraviy nizolar bilan tilga olingan Farg‘ona vodiysi bugun tinchlik va taraqqiyot markaziga aylanmoqda. Bahsli hududlar masalasi yechilib, ayrim kelishmovchiliklar o‘rnini endilikda izchil iqtisodiy hamkorlik, o‘zaro ishonchga asoslangan iliq munosabatlar egallayapti. Tojikistonning Sug‘d viloyatidagi Xo‘jand va Guliston shaharlari mezbonlik qilgan Ikkinchi Farg‘ona tinchlik forumi ushbu yangilanish davrining amaliy ifodasi bo‘ldi.



Mazkur oliy darajadagi xalqaro anjuman uch qo‘shni davlat o‘rtasida muhim burilish yasagan Xo‘jand deklaratsiyasi imzolanganining bir yilligi munosabati bilan o‘tkazildi. Mintaqaning uch viloyati rahbarlari, Markaziy Osiyo, MDH, Yevropa va Amerika mamlakatlaridan kelgan rasmiy vakillardan iborat uch yuzdan ortiq ishtirokchini bir maydonga jamlagan ushbu anjuman aniq iqtisodiy loyihalarga asoslangan hayotiy ehtiyoj ekanini ko‘rsatdi.

Xo‘sh, o‘n uch davlatdan vakillar qatnashgan, “Farg‘ona vodiysi: tinchlik, ishonch va farovonlik makoni” mavzusiga bag‘ishlangan mazkur forum o‘tgan yilgisidan qanday farq qiladi? Birinchi anjumandan ko‘zlangan asosiy maqsad 2025-yil 31-martda imzolangan davlat chegaralari tutashuv nuqtasi to‘g‘risidagi shartnoma ijrosini muhokama qilish edi. Unda mavjud muammolar aniqlanib, ularni hal etish bo‘yicha dastlabki taklif va konsepsiyalar ishlab chiqilgandi. Bu yilgi forum esa tarixiy “Abadiy do‘stlik to‘g‘risida”gi Xo‘jand deklaratsiyasining bir yilligiga bag‘ishlanib, unda asosiy e’tibor “Biznes muloqoti” platformasini tashkil etishga qaratildi.

Dastlabki kun strategik, iqtisodiy va ekologik yo‘nalishdagi muhokamalarga bag‘ishlandi. Uni Tojikiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik tadqiqotlar markazi direktori, professor Xayridin Usmonzoda kirish so‘zi bilan ochib berarkan: “Farg‘ona vodiysida tinchlik, barqarorlik, o‘zaro ishonch va yaxshi qo‘shnichilikni ta’minlash butun Markaziy Osiyoning barqaror rivojlanishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi”, deya ta’kidladi. Tantanali marosimda, shuningdek, Sug‘d viloyati raisi Rajab Ahmadzoda, Qirg‘iziston Respublikasi Prezidentining Botken viloyatidagi muxtor vakili Mamirjan Rahimov hamda Farg‘ona viloyati hokimi Xayrullo Bozorov nutq so‘zladi.

Forum doirasida Farg‘ona viloyati hokimi tinchlik va o‘zaro ishonchni amaliy hamkorlikka aylantirish masalalariga alohida e’tibor qaratdi.

– O‘tgan yilgi forumda biz doimiy faoliyat yurituvchi “Markaziy Osiyo yosh tinchlikparvarlari klubi”ni tashkil etish, chegaraoldi hududlarida yoshlar oromgohlari, madaniy festivallar va sport musobaqalarini muntazam o‘tkazish bo‘yicha takliflar bildirgan edik. Shuningdek, raqamlashtirish va startap loyihalarni qo‘llab-quvvatlash, talabalar almashinuvini yo‘lga qo‘yish, ilmiy tadqiqotlar hamda ta’lim sohasidagi hamkorlikni kengaytirish masalalarini ilgari surgan edik. Shu o‘rinda, chegara oldi hududlari tadbirkorlari uchun “Farg‘ona vodiysi biznes muloqoti”ni tashkil etish hamda “Farg‘ona ekspo” biznes markazida kelgusi yil fevral oyida uchta hudud tadbirkorlari ishtirokida ko‘rgazma o‘tkazishni taklif qilamiz. Ushbu maydon orqali Farg‘ona, Sug‘d va Botken tadbirkorlarining doimiy uchrashuvlarini o‘tkazish, kooperatsiya loyihalarini shakllantirish, savdo, sanoat, qishloq xo‘jaligi, turizm va xizmatlar sohasida qo‘shma tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash mumkin, – dedi Xayrullo Bozorov.

Mintaqadagi yaqinlashuv va hamjihatlikni yuqori baholagan nufuzli xalqaro tashkilotlar vakillari ham anjuman minbaridan turib o‘z munosabatlarini bildirdi. Xususan, BMT Bosh kotibining maxsus elchisi Kaxa Imnadze, Yevropa Ittifoqining maxsus vakili Eduards Stiprays hamda Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti koordinatori Bakit Jusupov Farg‘ona vodiysidagi bu ijobiy o‘zgarishlar butun Markaziy Osiyo barqarorligi uchun hayotiy ahamiyatga ega ekanini alohida qayd etdilar.

Shu bilan birga, Xalqaro migratsiya tashkilotining Tojikistondagi vakolatxonasi rahbari Viktor Lutenko, Konrad Adenauer jamg‘armasi vakili hamda PeaceNexus jamg‘armasi ijrochi direktori Katriona Gurley ham o‘z chiqishlarida transchegaraviy aloqalarni mustahkamlash, xavfsiz migratsiya va ijtimoiy loyihalarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish zarurligini ta’kidladi. Shuningdek, professor Abdushukur Nazarov tomonidan tayyorlangan “Mintaqalararo hamkorlik: Tojikiston, O‘zbekiston va Qirg‘iziston iqtisodiyotlari barqaror rivojlanishining istiqbollari va omillari” nomli yirik jamoaviy monografiya ham keng jamoatchilikka taqdim etildi.

Rasmiy muzokaralardan so‘ng, anjuman dasturi madaniy va ma’rifiy tadbirlar bilan davom etdi. Farg‘ona hamda Botken viloyatlari delegatsiyalari Xo‘jand shahridagi tarixi miloddan avvalgi oltinchi-beshinchi asrlarga borib taqaluvchi, yigirma sakkiz mingdan ziyod noyob tarixiy ashyolarni o‘zida jamlagan muhtasham “Xo‘jand qal’asi” majmuasi va o‘lkashunoslik muzeyini qiziqish bilan ko‘zdan kechirdi. Shuningdek, mehmonlar o‘ziga xos milliy me’morlik namunasi va yuksak muhandislik yechimi bilan dunyoga mashhur bo‘lgan “Arbob” madaniyat saroyi bilan yaqindan tanishdilar. Kun yakunida o‘tkazilgan katta bayram konserti xalqlarimiz o‘rtasidagi azaliy do‘stlik va madaniy mushtaraklikning chinakam tantanasiga aylandi.

Anjuman Guliston shahrida jamiyatni jipslashtirish va xalq diplomatiyasini kuchaytirishga bag‘ishlangan ramziy “Ынтымак” (Birlik) kuni bilan davom etdi. Xalqaro “Пийснакс” jamg‘armasining Markaziy Osiyo bo‘yicha dasturlari rahbari Chinara Esengul moderatorligida yig‘ilish bo‘lib o‘tdi. Unda so‘zga chiqqanlar davlatlar o‘rtasidagi do‘stlik aloqalarini fuqarolik jamiyati darajasida yanada mustahkamlash zarurligini ta’kidladilar. Shundan so‘ng ishtirokchilar sohaviy sho‘ba yig‘ilishlarida ishni davom ettirdi. Zaure Sidikova rahbarlik qilgan sessiyada doktor Zufar Ismoilzoda, Ayjan Satimbay qizi, Xurshida Ibragimova va Munira Osimova Farg‘ona vodiysida o‘zaro ishonchni tiklash hamda nodavlat tashkilotlar o‘rtasidagi hamkorlikni kengaytirish istiqbollarini muhokama qilishdi.



Ushbu nufuzli anjumanning asl mohiyati va ahamiyatini tushunish uchun unda yangragan siyosiy bayonotlar ortida turgan oddiy hayotiy haqiqatlarga e’tibor qaratish lozim. Masalan, ilgari Farg‘ona, Sug‘d yoki Botkenning qaysidir qishlog‘ida yashovchi oddiy vatandoshimiz qo‘shni qishloqdagi yaqin qarindoshining to‘yi yoki ta’ziyasiga borish uchun yuzlab kilometr masofani bosib o‘tishi, kunlab bojxona navbatlarida turishi kerak edi. Bugun esa chegaralarning tutashuv nuqtalari aniqlanib, tinchlik Deklaratsiyasi hayotga izchil tatbiq etilayotgani sababli, odamlar o‘z yaqinlari bilan hech qanday qo‘rquvsiz, ortiqcha to‘siq va sarsongarchiliksiz bordi-keldi qilmoqdalar.

Ikkinchidan, “Farg‘ona vodiysi biznes muloqoti” platformasi oddiy oilalar byudjetiga bevosita daxldordir. Bu bozorlarimizda oziq-ovqat, kiyim-kechak va kundalik ehtiyoj mollarining arzonlashishi hamda sifati oshishiga xizmat qiluvchi tizimdir. Agar farg‘onalik tadbirkor Sug‘ddagi sherigi bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri shartnoma tuzsa yoki botkenlik dehqon o‘z mahsulotini qo‘shni viloyat bozoriga to‘siqsiz olib kirsa, ortiqcha vositachilar o‘z-o‘zidan yo‘qoladi. Bu esa o‘zaro savdo aylanmasini kuchaytirib, bozorlardagi narx-navo barqarorligini ta’minlaydi.

Uchinchidan, bu islohotlar farzandlarimizning kelajagiga ham daxldor. Anjuman doirasida rejalashtirilayotgan yoshlar oromgohlari, madaniy bayramlar va yangi startap loyihalari farzandlarimiz uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochadi. Botkendagi Aq-Say qishlog‘i maktabi misolida ko‘rsak, chegaradosh hududlardagi maktab o‘quvchilarining bir-biri bilan do‘stlashishi – ehtimoliy nizolarga butunlay nuqta qo‘yishning eng to‘g‘ri yo‘lidir. Bolalarimizning yoshligidan bir-birini do‘st va birodar deb bilishi barqaror tinchlikning bosh garovi hisoblandi.

Ikkinchi Farg‘ona tinchlik forumi Markaziy Osiyo davlatlarining o‘z ichki muammolarini tashqi kuchlar aralashuvisiz, o‘zaro ishonch va teng sheriklik asosida hal eta olishining oliy namunasi bo‘ldi.

Shahriyor SHAVKAT
Xo‘jand

YORUG‘ XOTIRALAR

USTOZLAR USTOZI

Shu kunlarda jahon kino ixlosmandlarining diqqat-e’tibori Kristofer Nolan tomonidan suratga olingan “Odisseya” filmiga qaratilgan. Ayni vaqtda, “Yangi asr avlodi” nashriyoti tomonidan yurtimiz kitobxonlariga Homerning “Odisseya” dostonining yangi nashri taqdim etildi. Antik davrdan bugungacha yashab kelayotgan mazkur asar bashariyat adabiy merosining bebaho gavharidir. Ijobiy shov-shuvlar fonida kamina Homerni o‘zbekcha so‘ylatgan ustoz va mumtoz tarjimon QODIR MIRMUHAMEDOV xotirasini yod etmoqchiman.

* * *

Qodir Mirmuhamedovning qizi Raisa bilan universitetda birga o‘qiganmiz. Bu qiz kursimizning kamgap, kamtarin, ayni paytda, nihoyatda bilimdon talabalaridan edi. Dugona bo‘lganimiz uchun uylarida ham ko‘p bo‘lganman. Juda havas qilarli oila edi. Lekin u paytlarda Qodir aka haqida kam bilardim. O‘zi ham bizning tasavvurimizdagi katta ijodkor, beqiyos tarjimonga o‘xshamasdi. Oila davrasida oddiy inson, oila boshlig‘i edi.

Bu inson bilan yaqindan tanishuvim bitiruv diplomi yozish davrida boshlandi. Oxirgi bosqichda talabalar uch guruhga bo‘lindi: adabiyot, tilshunoslik va tarjima nazariyasi. Bir nechta kursdoshlarim bilan tarjima nazariyasini tanladik. Bizga ulug‘ ustozlar G‘aybulla as-Salom, Najmiddin Komilov, Tilak Jo‘ra saboq berishardi. Xullas, diplom ishi mavzusini aniqlash va izlanish jarayoni boshlandi. Kafedradan mavzular ro‘yxati taklif qilindi. Najmiddin Komilov shu vaqtgacha dublyaj (filmlar tarjimasi) nazariyasi bo‘yicha hech qanday ish qilinmaganini aytib, menga shu mavzuni olishni tavsiya qildi. O‘zim ham qiziqib qoldim.

Bir kuni “O‘zbekfilm” kinostudiyasining dublyaj sexiga kirib bordim. Qodir Mirmuhamedov bilan uchrashib, maqsadimni aytdim. “Kutilmagan mavzu-ku, ayniqsa, bu mavzuda hech qanday qo‘llanma yo‘q, qiynalmaysanmi?” dedi. “Mavzuni oldim. Harakat qilaman. Materialni to‘plab olsam bo‘ldi”, dedim. Meni bo‘lim muharrirlari bilan tanishtirishdi. Xuddi shu paytda “Tojikfilm” kinostudiyasida suratga olingan “Rustam va Suhrob” filmi ruschadan o‘zbek tiliga o‘girilayotgan ekan. Xullas, Qodir aka salkam to‘rt oy dublyaj studiyasida bemalol shug‘ullanib, zarur materiallarni to‘plashimda katta yordam berdi. Ish yuzasidan o‘zlaridan ham ko‘p fikrlar, maslahatlar oldim. Diplomni yoqlagach, ustozlarga, ijodkorlarga, muharrirlarga minnatdorlik bildirdim. Hammalari samimiy tabriklashdi.

Filologiya fakultetini bitirgandan so‘ng ba’zi sabablarga ko‘ra, ilmiy ish haqidagi orzum amalga oshmadi. Shunda dublyajda ishlab ko‘rsam-chi, degan o‘yda yana Qodir akaning huzuriga bordim. U kishi meni “O‘zbekfilm” kinostudiyasi direktori, taniqli adib O‘lmas Umarbekovning huzuriga olib kirdi. O‘lmas aka nihoyatda madaniyatli va oliyjanob shaxs edi. Hozir menbop ish yo‘qligini, imkon bo‘lishi bilan chaqirtirib olishini ming bir xijolatda aytdiki, o‘zim uyalib ketdim negadir.

So‘ng Qodir aka meni kinostudiya qoshidagi multfilmlar suratga olish sexiga olib borib, sex rahbari Svetlana Murodxo‘jayeva bilan tanishtirdi. “Shu qizga ijodiy jarayon haqida, bugungi kunda qanday multfilmlar yaratilayotgani to‘g‘risida ma’lumot bersangiz, gazetaga maqola tayyorlab beradi”, dedi. O‘sha kuniyoq hamma ma’lumotlarni olib, uyga kelganimdan so‘ng birinchi marta maqola yozishga o‘tirdim. Ya’ni, san’at haqida yozish borasidagi ilk topshiriqni Qodir Mirmuhamedovdan olgandim. Keyinchalik, “O‘zbekiston madaniyati” gazetasida ish boshlaganimda ham ustoz bilan tadbirlarda uchrashib turdim. U kishi ishlarim bilan qiziqib, maslahatlar berib turdi.

* * *

Shunisi e’tiborliki, ko‘p vaqti dublyaj guruhida o‘tgan bu inson dunyo kitobxonlari qalbini zabt etgan asarlarni rus tilidan o‘zbek tiliga mahorat bilan o‘girib, yurtimiz kitobxonlariga taqdim etishga ham ulgurardi. Ular orasida Homerning “Iliada”, “Odisseya”, Jek Londonning “Martin Iden”, Robindranat Tagorning “Xonadon va jahon”, “So‘nggi doston”, Jovanni Bokkachchoning “Dekameron”, Viktor Gyugoning “Byug Jargal”, Mixail Bulgakovning “Usta va Margarita”, Krishan Chandrning “Bir qizga ming oshiq” kabi qiziqarli, ayni paytda murakkab asarlar bor.

Shuningdek, tarjimalar orasida dramalar, ko‘plab badiiy filmlarning borligi adib mahoratining yorqin dalilidir. Xususan, kino asarlari tarjimasida ham ustoz tarjimonning alohida o‘rni bor. Tasavvur qilish uchun “Urush va tinchlik”, “Jurnalist”, “Sangam”, “Qirol Lir”, “Boshsiz chavandoz”, “Siyovush haqida doston”, “Uyimizdagi erkak”, “Soldat otasi”, “Changda qolgan gul”, “Hech kim o‘lishni istamasdi”, “Bir umrga teng yil” kabi filmlarni eslash kifoya.

* * *

Gazetadagi faoliyatim davomida yozganlarim orasida o‘zim uchun eng ahamiyatli va qadrlilaridan biri Qodir Mirmuhamedov bilan suhbatimiz edi. Bu uchrashuv 2010-yilda, adibning uyida bo‘lib o‘tgandi.

O‘shanda ustoz mutarjim 90 yoshda edi. Meni bir paytlar dublyaj studiyasi rahbari sifatida qanday kutib olgan bo‘lsa, Qodir akani hamon o‘sha samimiyat, ochiqko‘ngillik, bag‘rikenglik tark etmagandi. Qadlari biroz cho‘kib, sochlari oqarganini aytmasangiz, to‘qsonni qarshilayotganiga odamning ishongisi kelmasdi. Hech esimdan chiqmaydi. O‘ziga shu gaplarni aytganimda, bir xo‘rsinib olib, shunday degandi: “Men tengilarning safi ancha siyraklashib qoldi. Umr – oqar suv. Sinfdoshlarimdan kompozitor Ikrom Akbarov bilan ikkimiz qoldik... Hayotda nimaga erishgan bo‘lsak, bu avvalo, ota-onamizning tarbiyasi tufayli”.

Shuni aytishim kerakki, Qodir aka ota-onasi haqida qanchalar mehr bilan gapirgan bo‘lsa, o‘zining farzandlari ham bugun otalari haqida xuddi shunday mehr, hurmat bilan so‘zlashadi. Besh farzandning hammasi hayotda o‘z o‘rnini topib, otasiga munosib farzand sifatida turli sohalarida halol xizmat qilmoqda.

O‘sha kuni uzoq suhbatlashdik. Ustoz ijodkorning hayot yo‘li haqida juda ko‘p narsalarni bilib oldim. Ayniqsa, navqiron yigitlik davri Ikkinchi Jahon urushi yillariga to‘g‘ri kelgani, urushining dahshatli suronlari ichida kechgani haqidagi hikoyalarini katta hayajon bilan tinglaganman. Qodir aka ko‘rgan-kechirganlari haqida ma’yus, o‘ychan hikoya qilayotgan damlarda urush yillarida uning boshiga tushgan og‘ir sinovlardan yuragim o‘rtanib, bu sinovning mashaqqatlarini ich-ichimdan his qilib, bu insonning irodasi qanchalar mustahkam ekaniga qoyil qolib o‘tirardim. U kishini tinglaganim sari, o‘zim yaxshi bilaman, deb yurgan inson haqida hali deyarli hech narsa bilmasligimni sezib qolgandim. Zero, suronli janglardan birida asirga tushib qolib, tutqunlikda boshdan kechirganlarining o‘zi katta bir asar bo‘lgulik voqealar edi.



Urushning dahshatli changalidan chiqib, uyga qaytgan Qodir akaning oldida oilani boqish vazifasi turgani uchun Pedagogika institutining kechki bo‘limida o‘qish bilan birga kunduzi ishlashga majbur bo‘ladi. Suhbatimiz davomida institutda antik davr adabiyoti fanidan adabiyotshunos olim Hamid Sulaymon dars bergani haqida to‘lqinlanib so‘zlagan, shuningdek, Abdulla Qahhor, Mirtemir, Mirkarim Osim, Mirzakalon Ismoiliy kabi ijodkorlarni ustoz sifatida qadrlashini aytgandi. Qodir akaning: “Ustozlarimdan har bir so‘zni o‘z o‘rnida ishlatishni, so‘zni isrof qilmaslikni o‘rgandim. Chunki qahramonning nutq madaniyati, xarakteri, qiyofasi so‘zda namoyon bo‘ladi. So‘zma-so‘z tarjimada har qanday asarning badiiy qimmati yo‘qoladi”, deb aytgan gaplari bugungi ijodkor yoshlarga ibrat bo‘lsa, ajabmas.

Bugun ijod olamiga qadam qo‘yayotgan ba’zi ijodkorlarga saboq bo‘lishi mumkinligini o‘ylab, Qodir akaning o‘gitlaridan yana ba’zilarini keltirishni lozim topdim:

“Biror asarni o‘girishga kirishgan odamda mas’uliyat hissi bo‘lishi kerak. Ya’ni, duch kelgan asarni olib, shunchaki o‘girib tashlayvergan bilan ish bitmaydi. Tarjimon, avvalo, asar muallifi haqida to‘liq ma’lumotga ega bo‘lishi, uning qanday asar ustida ish boshlaganini tushunishi kerak”;

“Asar tarjimasiga qo‘l urganda yozuvchi shaxsini, u yashagan joyni, davrni, kishilar hayotini, muhitni o‘rganish kerak bo‘ladi. Busiz haqqoniy tarjima asari yaratish mushkul”;

“Tarjima jarayonida sinonim, antonim, omonimlardan foydalanishni, bularning qahramon nutqini berishdagi ahamiyatini, umuman, har bir so‘zni o‘z o‘rnida ishlatishni, so‘zni isrof qilmaslikni o‘rganish lozim”;

“Tarjima uchun qo‘lga olingan asar mutarjimning diliga yaqin, uning dunyoqarashi asar muallifining ijodiy qarashlari bilan mushtarak bo‘lishi zarur”.

Xalqda “Kamtarga kamol” degan naql bor. Men Qodir Mirmuhamedovda kamtarlikning kamolini – eng yuksak ifodasini ko‘rgan edim. Odam qanday qilib, shuncha katta ishlarni amalga oshirib ham kamtarlikni qo‘ldan bermasligi mumkinligini tushunmasdim. Keyinchalik o‘ylasam, bu barcha ulug‘larga xos fazilat, balki ulug‘likning ayni o‘zi ekan.

Gulchehra UMAROVA,
O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi

“JADID” KUTUBXONASI”

SHUNDAY KITOBLAR KERAK!

OLTINCHI TO‘PLAM

Tahririyat boshlagan ezgu tashabbus izchil davom etib, qisqa muddatda “Jadid” kutubxonasi” ruknida nashr etilgan chin jadidona, jamiyatni uyg‘oq va ogoh yashashga da’vat etuvchi kitoblar soni oltitaga yetdi: ikki jildda “Tilda, fikrda, ishda birlik!”, shuningdek, zahmatkash olimlarimiz Rustambek Shamsutdinovning “Millat fidoyilari” va Bahodir Karimning “Botmasin chiqqan quyosh” hamda iste’dodli yosh ijodkor Shahriyor Shavkatning “Hirotga, bobomning huzuriga!” asarlari safiga gazetaning doimiy muallifi, “Ziyo” media markazi rahbari, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi Abdulhamid Muxtorovning “E’tiqod ostonasidagi “Troya oti” nomli to‘plami qo‘shildi.

O‘zbekiston xalq shoiri, “Jadid” gazetasi bosh muharriri Iqbol Mirzoning kitobga so‘zboshi o‘rnida taqdim etilgan “Ro‘yo va hayot oralig‘i” hamda falsafa fanlari doktori, professor, Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi direktori bosh maslahatchisi Baxtiyor To‘rayevning so‘ngso‘z o‘rnida berilgan “Katta o‘yinlar”dan ogohlantiruvchi kitob” nomli maqolalari o‘quvchilarga asar mazmun-mohiyatini chuqurroq anglab yetishda ko‘makchi vazifasini bajaradi.

Zamonaviy axborot jarayonlari va jamiyat kelajagiga befarq bo‘lmagan keng kitobxonlar ommasiga, xususan, olimlar, pedagoglar, ma’naviyat targ‘ibotchilari, diniy soha mutaxassislari, jurnalistlar, o‘quvchi va talabalar uchun mo‘ljallangan (fikrimizcha, yosh askarlarimiz ham, albatta, o‘qishi zarur) kitob “Tafakkur” nashriyotida 3 ming nusxada dunyo yuzini ko‘rdi.

YETTI BO‘LIMLI MULOHAZALAR

To‘plam mundarijasini tashkil etgan yetti bo‘limning “Sarhadsiz maydon”, “Ildizlar soyasi”, “Yemirilish jarayoni”, “Tafakkur va taraqqiyot”, “Aqllar raqobati”, “Kitob qadri”, “Millat tayanchi” deya nomlanishi kitob sarlavhasiga “Ong, axborot va zamon haqida mulohazalar” degan tagsarlavha bejiz ilova qilinmaganini ko‘rsatadi. Bu bo‘limlar muallifning “Jadid” gazetasida yaqin bir-ikki yil oralig‘ida e’lon qilingan 20 ga yaqin maqolasini turkumlaydi. Garchi bo‘limlarga ajratilgan bo‘lsa-da, bu maqolalarni mazmunan birlashtiruvchi bitta nuqta mavjud, u ham bo‘lsa, jamiyatni bugungi xavf-xatarlardan ogoh etish va tobora globallashib borayotgan dunyoda milliy o‘zlikni saqlab qolish istagidir. “Geoma’naviy tahdidlar qarshisidagi Vatan”, “Shod ketib, iztirob bilan qaytmang!”, “Manfaatparastlik epidemiyaga aylansa”, “Kelajak yoshlar qo‘lida. Yoshlar-chi?”, “Sun’iy idrokli dunyo”, “Kurashadi ikki to‘lqin, qarab turaymi?!”, “Bir kishi o‘qiyotgan kitoblar”, “Noshirning dardi”, “Safarnoma saboqlari”... bu maqolalarning har birida shunday ovoz – zamon da’vati baralla eshitilib turadi. Darvoqe, salmoqli hajmga ega bu maqolalarning har biri yana kichik sarlavhalarga bo‘lingan holda taqdim etilishi mavzuning yanada tushunarli va ravon yoritilishini ta’minlaydi. Kitobda har bir maqola “Jadid” gazetasining qaysi sonida e’lon qilingani ko‘rsatib o‘tilgani ham e’tiborlidir.

Annotatsiyada qisqa va to‘g‘ri izoh berilganidek, to‘plamda global axborot makoni, inson ongi, e’tiqodi va jamoatchilik fikriga ta’sir ko‘rsatayotgan zamonaviy jarayonlar ilmiy-publitsistik nuqtayi nazardan tahlil qilingan. Geoma’naviy tahdidlar, radikalizm va ekstremizm, axborot manipulyatsiyasi, raqamli platformalarning ongga ta’siri, tarixiy xotira, milliy o‘zlik, til, ilm-fan va texnologiya taraqqiyoti bilan bog‘liq masalalar hayotiy misollar, ekspert mulohazalari va xalqaro tajribalar asosida yoritilgan. To‘plam o‘quvchini rost va yolg‘on, talqin, hayot va ro‘yo o‘rtasidagi nozik chegarani anglashga, axborotni tanqidiy baholashga, mustaqil va uyg‘oq fikrlashga undaydi.

BIR MAQOLA MISOLIDA

Keling, yuqorida bildirilgan fikrlar dalilini to‘plamdan o‘rin olgan “Geoma’naviy tahdidlar qarshisidagi Vatan” nomli bir maqola misolida ko‘rib chiqaylik. Maqola “Endi front chizig‘i yo‘q” degan kichik sarlavha bilan boshlanadi hamda unda bugungi taloto‘p dunyoning behalovat manzaralari ixcham va ta’sirchan tarzda ochib beriladi. So‘ng “Geoma’naviyat va geoma’naviy tahdid” sarlavhasi bilan muallif taklif etayotgan “geoma’naviyat” tushunchasining mazmun-mohiyatiga e’tibor qaratiladi: “Ongni zabt etish, bo‘ysundirish va boshqarishning turli usullari mavjud. Bunday usullarning barchasini yaxlit holda “geoma’naviy tahdid” atamasi bilan ifodalash mumkin”.

Maqoladan o‘rin olgan keyingi kichik sarlavhalarga e’tibor qiling: “Geoma’naviy xavfsizlik”, “Geoma’naviy ta’sir mexanizmlari”, “Tashqi omillar”, “Qisqa formatlar va yashirin radikallashuv mexanizmi”, “Ijtimoiy oqibatlar: qutblashuv va huquqiy ongning zaiflashuvi”, “Axborot manipulyatsiyasi va psixotexnologik ta’sir”, “Raqamli manipulyatsiyaning institutsional misoli”, “Manzilli ta’sir mexanizmi”, “Ongga yo‘naltirilgan axborot ta’siri”, “Algoritm va targeting orqali ta’sir”, “Muvofiqlashtirilgan soxta faoliyat (CIB)”, “Radikalizm va ekstremizmning medialashuvi”, “Yevropa institutsional tahlillari”, “ISHIDning raqamli kommunikatsiya vositalari”, “Al-Qoida” va “Inspire” jurnali”, “Al-Shabbab” va media markazlar”, “Radikal shialik oqimida mediatarg‘ibot”, “Hizb ut-Tahrir” g‘oyalarining raqamli tarqalishi”, “Binar ritorika va manipulyativ sxemalar”, “Eng xavfli geoma’naviy tahdid”, “Geoma’naviy tahdidlar qarshisidagi ichki zaifliklar”, “Milliy axborot makonida kuzatilayotgan holatlar” va nihoyat, “Ong uchun kurashda yutqazish mumkin emas”. O‘ylaymizki, mana shu nomlarning o‘ziyoq o‘quvchiga bugungi davr uchun nihoyatda dolzarb bo‘lgan mavzu haqida qiziqarli tahlilni va’da qiladi.

Muallif ta’lim tizimi, madaniy diplomatiya va din yo‘nalishlarida kuzatiladigan geoma’naviy ta’sir mexanizmlari xususida so‘z yuritar ekan, odatda, aksariyat odamlar qiziqishini tortadigan xorijiy stipendiyalar, grantlar, til kurslari, akademik almashinuv dasturlari, turli festivallar-u madaniy tadbirlar, kino va musiqa mahsulotlari namoyishi zamiridagi yot dunyoqarashni shakllantirish, yangi standartlar, o‘zgacha bilim mezonlari va begona qadriyatlar tizimini shakllantirish tahdidlaridan ogoh etadi. Albatta, “tekin pishloq faqat qopqonda bo‘ladi”. Jamiyat uchun jozibali ko‘ringan bunday “beg‘araz” dasturlar odamlar ongida muayyan bir davlat, xalq yoki madaniy makonga nisbatan xayrixohlik hissini yuzaga keltirishga xizmat qiladi. Aslida, “yumshoq kuch” tamoyiliga asoslangan bunday tashqi ta’sirlar “aholi dunyoqarashi, axloqiy mezonlari va ma’naviy qadriyatlariga bevosita daxldor bo‘lgani jihatidan geoma’naviy tahdidlar tizimida eng ta’sirchan va uzoq muddatli omillardan biri hisoblanadi”.

Maqolada “xalq, inson ongi, Vatan va suverenitet uchun muqarrar xavf tug‘diradigan geoma’naviy tahdidlar”ning eng muhim va qudratli quroli bo‘lmish axborot xurujlari batafsil o‘rganiladi. Masalan, bugun bir xalq vakillarining boshqa bir xalq yoki davlatga nisbatan bildirayotgan noxolis fikrlariga duch kelamiz. “Aytdi-qo‘ydi-da, aslida, unday emas-ku”, deya aslo xaspo‘shlash mumkin bo‘lmagan bunday xatti-harakatlar aynan geoma’naviy tahdiddir. Bunday maqsadli “axborot xurujlari” asta-sekin milliy birlikka raxna soladi, jamoatchilikning ongiga, kayfiyatiga ta’sir qilib, boshqa bir davlat suverenitetini muntazam muhokama obyektiga aylantirish orqali ruhiy bosimni vujudga keltiradi.

Elchilik, deymiz, jamiyatda o‘zining sobit fikriga ega insonlar bilan bir qatorda, yot targ‘ibotlarga oson aldanib qoladigan odamlar ham yo‘q emas-da. Balki, ular soni birinchi guruhdan ko‘proqdir. Xo‘sh, ular “qarmoq”qa qanday ilinib qoladi? Qarmoqda ularni jalb etadigan qanday “xo‘rak” turibdi? Jahonning yetakchi mutaxassislari fikriga ko‘ra, bugun ijtimoiy tarmoq – shuni to‘rtarmoq deylik, shu atama unga har taraflama mos kelyapti – to‘rtarmoqlardagi qisqa video formatlarining ta’siri to‘liq metrajli badiiy yoki hujjatli filmlardan ham kuchli bo‘lishi mumkin. Chunki ular qisqa vaqt ichida yuqori emotsional ta’sir qoldirish, auditoriya diqqatini ushlab turish va xabarni soddalashtirilgan shaklda uzatish imkoniga ega.

Muallifga ko‘ra, ayni paytda radikal va ekstremistik targ‘ibotda ham ayni shu formatlar faol qo‘llanmoqda. Xavfli g‘oyalar ko‘pincha “quvnoq”, “oddiy hayot haqiqati” yoki “shaxsiy tajriba” ko‘rinishida yumshatilgan holda taqdim etiladi. Natijada auditoriya bu kabi mazmunni darhol xavf sifatida qabul qilmaydi. Bu holat “yashirin radikallashuv” deb ataladigan mexanizmni yuzaga keltiradi. Unga ko‘ra, shaxs avval radikal g‘oyani qiziq ma’lumot yoki muqobil



fikr, keyin esa oddiy haqiqat sifatida qabul qiladi, lekin vaqt o‘tishi bilan mazkur qarashni himoya qilishga tayyor holatga yetib keladi. Aynan shu jarayon radikallashuvni yashirin va bosqichma-bosqich yuzaga chiqaradi. Shu sababli, terroristik va ekstremistik guruhlar radikal g‘oyalarni media mahsulot ko‘rinishida tarqatish strategiyasidan unumli foydalanmoqda. Bunday targ‘ibotning geoma’naviy tahdidlar ichida eng xavfli shakllardan biriga aylanishining asosiy sababi, uning inson ongi, axloqiy mezonlari va ma’naviy e’tiqodiga bevosita ta’sir ko‘rsatish qobiliyatidadir. Chunki, diniy mazmunda taqdim etilgan g‘oyalar ko‘p hollarda “muqaddas haqiqat” sifatida qabul qilinadi.

To‘rtarmoqdagi izohlarga bir qarang: asosan negativ fikrlar, bir-birini onlayn haqorat qilayotganlar bilan to‘la. Jamiyatda bunday bo‘linishlarning kuchayishi, odamlar o‘rtasida murosasizlik ortib, bag‘rikenglik va muloqot madaniyatining yo‘qolib borishi, huquqiy ongning zaiflashishi, davlat institutlari, qonun va huquqiy tartibga nisbatan ishonch so‘nib, yovvoyi hissiyotlarga erk berilishi – bularning barchasi to‘rtarmoqdagi axborot manipulyatsiyalari bilan bog‘liq emasmi, degan savol tug‘iladi. Jamiyatda yuzaga keladigan xuddi mana shu parokandalik maqolada yaqin tariximizda, yon-atrofimizda, dunyoda sodir bo‘layotgan aniq voqealar misolida ochib beriladi.

Bugun ong uchun kurash g‘oyat qizg‘in pallaga kirgan bir zamonda avvalgi davrlarda faol ishlagan “josus”lik xizmatiga ham ehtiyoj qolmaganday. Chunki, jamiyatning, odamlarning o‘zi barcha ma’lumotlarni o‘z qo‘llari bilan taqdim etib turibdi. Sizning to‘rtarmoqda qoldirgan har bir “raqamli iz”ingiz – layklar, izohlar, ko‘rilgan video va o‘qilgan materiallar, obunalar, qidiruv so‘rovlari va onlayn faollik vaqtlari sizning “raqamli portret”ingizni shakllantiradi. Bu ma’lumotlar tizimli o‘rganilib, auditoriyaga ta’sir ko‘rsatish mexanizmlari ishlab chiqiladi, “ya’ni avval auditoriya ma’lum psixologik belgilar asosida guruhlarga ajratiladi, keyin esa har bir guruh uchun alohida axborot ssenariylari ishlab chiqiladi. Natijada har bir shaxsga uning qo‘rquvi, qiziqishi, qadriyatlari yoki ijtimoiy qarashlariga mos bo‘lgan axborot impulsi uzatiladi”. Algoritmlar va kontent muhiti ijtimoiy inqirozga olib kelishiga misol tariqasida keltirilgan Myanma voqeasi tahlilini, albatta, o‘quvchilarimiz maqolaning o‘zidan batafsil o‘qiganlari ma’qul, unda “Facebook”dagi nafratga yo‘g‘rilgan targ‘ibot va tizginsiz dezinformatsiya yuz minglab kishilar hayotini vayron qilgani dalillab berilgan.

Maqolada manfaatdor kuchlar o‘z maqsadlari yo‘lida olib borayotgan izchil va tizimli harakatlar hamda jamiyat oldida turgan xavf-xatarlar aniq-tiniq bayon etilar ekan, geoma’naviy xavfsizlikni ta’minlashga oid zarur strategik choralar ham ko‘rsatib o‘tiladi. Bu ta’sirlarni tizimli tahlil qilish, ularga tezkor javob berish, samarali kontr-narrativ yaratish, jamiyatda tanqidiy fikrlash va mediasavodxonlikni rivojlantirish, ayniqsa, yoshlarda axborotni farqlash, manbani tekshirish va manipulyatsiyani anglash ko‘nikmalarini yuksaltirish, bir so‘z bilan aytganda, jamiyatning ma’naviy immunitetini oshirish bo‘yicha aniq taklif va tavsiyalar bildiriladi.

Bunday dolzarb mulohazalar “E’tiqod ostonasidagi “Troya oti”, “Yaxshilik elchisi”, “Sun’iy idrokli dunyo”, “Kurashadi ikki to‘lqin, qarab turaymi?!” singari maqolalarda ham mantiqan davom etadi. Masalan, fransuz sharqshunosi, siyosatshunos va dinshunos ekspert Olivye Ruaning: “Islom radikallashyaptimi yoki radikallashuv islomlashyaptimi?..” degan istehzoli savoli o‘quvchini fikr yuritishga undaydi. Bugungi davrda ommalashgan bir falsafaning ochib berilishi ham kitobxonni befarq qoldirmaydi. U qanday falsafa bo‘ldi, deysizmi? Bu – bosqin falsafasi. “Ha, shunday ibora bor. Biror xalqni bosib olish va davlatni istilo etishni oqlovchi falsafiy qarash u. Unga ko‘ra, istilochi – xaloskor, bosqinchi – adolat kurashchisi”.

Lekin xaloskor kuchlarga ham, bosqinchilarga ham ilm kerak. Chunki, bugun harbiy janglarning-da mohiyati o‘zgargan. Bugun “ma’lumot – yangi neftdir” degan ibora paydo bo‘lgani bejiz emas. Chunki, “harbiy strategiyada eng muhim narsa bu – ma’lumot. Kim axborotni tezroq to‘plasa, tezroq tahlil qilsa va to‘g‘ri qaror qabul qilsa, o‘sha tomon tezroq ustunlikka erishadi. Biroq zamonaviy urush sharoitida ma’lumot hajmi shunchalik ulkanki, uni insonning o‘zi tahlil qilishi deyarli imkonsiz... Mana shu o‘rinda sun’iy intellekt maydonga chiqadi. Ular jang maydonidagi axborotni tezkor tahlil qilib, qo‘mondonlariga strategik variantlarni taqdim etadi. Demak, jang maydonida yangi ishtirokchi paydo bo‘lmoqda. U na tank, na samolyot, na raketa. U – algoritm... Zamonaviy urushda hal qiluvchi omil endilikda tanklar soni yoki samolyotlar quvvati emas, balki ma’lumotni kim tezroq va aniqroq qayta ishlay olishi bo‘lib bormoqda. Haqiqatan ham, agar bir tomon dushman harakatini bir necha daqiqa oldin bilib olsa, u strategiyani tezda o‘zgartirishi mumkin. Agar ikkinchi tomon bu ma’lumotni kechiktirib olsa, u jangning boshlanishidanoq yutqazishi mumkin... Algoritmlar jang maydonida qaror qabul qilish jarayonini o‘zgartirib borayotgan bo‘lsa, sun’iy idrokning yana bir yo‘nalishi harbiy strategiyaning aynan o‘ziga ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu esa dron to‘dalari texnologiyasidir... Bu tizimda o‘nlab, ba’zan yuzlab uchuvchisiz kichik qurilmalar bir vaqtda osmonga ko‘tariladi. Ular markaziy buyruqni kutmaydi. Har bir dron o‘z sensorlari orqali atrof-muhitni kuzatadi va boshqa dronlar bilan ma’lumot almashadi. Sun’iy intellekt esa bu ma’lumotlarni tahlil qilib, guruh ichidagi vazifalarni avtomatik tarzda taqsimlaydi. Natijada dronlar alohida qurilmalar emas, balki bir butun tizim sifatida harakat qiladi”.

Bugun rivojlangan dunyo mana shunday yangiliklar bilan yashayapti. Kimdir shoxida yurgan bo‘lsa, kimdir bargida yuribdi. Qurollanish poygasi sun’iy idrok sohasiga ham jadal kirib kelmoqda. Mudofaa sohasidagi ilg‘or tadqiqot loyihalari sun’iy intellekt asosida avtonom dronlar, kiberhimoya tizimlari va intellektual harbiy dasturlarni rivojlantirishga qaratilmoqda. Tajovuzkor kuchlar boshqalarning “uyidagi noz-ne’matlarga ularni o‘z uyidan haydab chiqmasdan ham ega bo‘lish”ga intilmoqda. Jahonning eng boy odami Ilon Mask nazarda tutgan kelajak urushlari ham sun’iy idrok bilan bog‘liq, shu bois, u insonlarni Marsga ko‘chirish harakatiga tushgan. Boshqa bir guruh texnologiya gigantlari esa bashariyat hayotini saqlab qolish uchun ilg‘or texnologiyalar rivojini jilovlashni taklif etmoqda.

Abdulhamid Muxtorovning “E’tiqod ostonasidagi “Troya oti” nomli kitobi mana shu “qaynoq” jarayonlarning yuzidan pardani ochadi. Barchani ogohlikka chaqiradi. Ey, inson, soddagо‘l bo‘lma, boshqalar maqsadli tarzda yaratayotgan axborot mahsulotlarining oddiy va ko‘r iste’molchisi bo‘lib – ular qo‘lida o‘yinchoqqa aylanib qolma, ongini boy bergan odam erkini ham yo‘qotadi – o‘z ongingga o‘zing egalik qil, zamon bilan hamqadam yurma – zamondan oldin yur, kelajagingni birov chizib bermasin – uni o‘zing yarat, deya da’vat qiladi. Zero, “kim jamiyat ongini shakllantirsa, u kelajak yo‘nalishini ham belgilay olishini aslo unutmaslik lozim. Shu ma’noda, bu kurashda yon berishga, sustkashlikka yoki manfaatli yondashuvga o‘rin yo‘q. Chunki millat ongi uchun bo‘lgan kurashda yutqazish mumkin emas”.

To‘plamni o‘qib, undagi ma’lumotlarni chuqur tahlil qilgan o‘quvchi bugun shunday kitoblar haqiqatan ham zarurligiga amin bo‘ladi va uni boshqalarga ham tavsiya etadi, deb ishonamiz.

Ikrom BO‘RIBOYEV

MAMNUNIYAT



USTOZ MEHNATI – EL E’TIROFI

**Azimboy Safarboyev,
“O‘zbekiston Respublikasi xalq o‘qituvchisi”, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Amudaryo tumanidagi 36-umumta’lim maktabining matematika fani o‘qituvchisi**:

– Assalomu alaykum, aziz yurtdoshlar! Men qariyb 39 yildan buyon ta’lim sohasida mehnat qilib kelyapman. Shu yillar davomida ko‘plab yoshlarga ta’lim va tarbiya berish baxtiga muyassar bo‘ldim. Bugungi kunda oliy ma’lumotli mutaxassis bo‘lib, turli sohalarda faoliyat yuritayotgan shogirdlarimning soni 2000 nafardan oshdi. Ularning hayotda o‘z o‘rnini topib, yurtga naf keltirayotganini ko‘rish men uchun eng katta baxt va mukofot. Bayram arafasida kamtarona mehnatim yuksak baholanib, Prezidentimiz tomonidan menga “O‘zbekiston xalq ustozi” faxriy unvoni berilgani men uchun katta quvonch va sharaf bo‘ldi. Bu e’tirof uchun Prezidentimizga chuqur minnatdorlik bildiraman. Men ushbu unvonni faqat o‘zimga yoki maktabimizga berilgan mukofot deb emas, balki butun Qoraqalpoq eliga ko‘rsatilgan yuksak hurmat va e’tirof sifatida qabul qilaman. Zero, ustozning mehnati zamirida butun bir xalqning orzusi, farzandlarining kelajagi mujassam. Fursatdan foydalanib, barcha ustoz va murabbiylarni kasb bayrami bilan chin qalbimdan tabriklayman. Har biringizga mustahkam sog‘liq, oilaviy xotirjamlik, sharafli mehnatingizda ulkan zafarlar va shogirdlaringizning yutuqlaridan bahramand bo‘lish baxtini tilayman.



“SPORT ORQALI SOG‘LOM AVLODNI TARBIYALAYMIZ”

**Botirjon Muqumov,
“O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan sport ustozi”, Andijon viloyati Oltinko‘l tumanidagi 2-umumiy o‘rta ta’lim maktabining jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi**

– 1-oktyabr – O‘qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan barcha hamkasblarimni chin qalbimdan tabriklayman. Yosh avlodni sog‘lom, barkamol va vatanparvar insonlar etib tarbiyalashdek sharafli va mas’uliyatli faoliyatimizda barchangizga kuch-quvvat, muvaffaqiyat va zafarlar tilayman. Bayram arafasida Prezidentimiz farmoni bilan menga “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan sport ustozi” faxriy unvoni berilgani men uchun katta quvonch va sharaf bo‘ldi. Bu e’tirofni faqat o‘z mehnatimga berilgan baho emas, balki yurtimizda yoshlarni jismoniy tarbiyalash, sportga jalb etish yo‘lida fidokorona mehnat qilayotgan barcha jismoniy tarbiya o‘qituvchilari va sport murabbiylarining mehnatiga bildirilgan yuksak hurmat sifatida qabul qilaman.

Bugun mamlakatimizda yoshlarni sportga keng jalb etish, ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, iqtidorini ro‘yobga chiqarishi uchun zarur sharoitlar yaratishga katta e’tibor qaratilmoqda. Bu esa biz, ustoz va murabbiylar zimmasiga yanada katta mas’uliyat yuklaydi. Yaratilayotgan imkoniyatlardan samarali foydalanib, bilim va tajribamizni yoshlar tarbiyasiga bag‘ishlashimiz kerak.

O‘Y

ISTE’MOLCHI OLOMON



paydo bo‘lmasligi uchun bugun bosh qotirish lozim!

Oxirgi paytlarda odamlar orasida iste’molchilik ruhiyati yaqqol ko‘zga tashlanayotgani hech kimga sir emas. Ko‘pchilikning o‘y-xayoli ko‘proq narsa-buyumlar xarid qilish, o‘zini boshqalar bilan taqqoslash bilan band. Shaxsning jamiyatdagi o‘rnini asosan uning boyligi bilan o‘lchashga moyillik kuzatiladi.

Taniqli faylasuf Viktor Alimasovning quyidagi fikrlari ham masalaning naqadar dolzarb ekanini tasdiqlaydi: “Mening nazarimda, jamiyatimizda so‘nggi yillarda iste’molchilik kayfiyati kuchayib qoldi. Iste’molchilar jamiyatiga aylanib boryapmiz. Supermarketlar, do‘konlar to‘la. O‘zim ham bir kun nimadir olmasam, turolmayman. Tadbirkorlar sinfi bizni iste’molchilikka o‘rgatib qo‘yyapti. Kayfiyatimiz ham shunaqa. Bundan qochib qutulolmaymiz. Ammo buning yomon tomoni mavjud: yoshlar iste’molchilikka ko‘proq o‘rganib qoladi, tayyorga ayyor bo‘ladi. Biz bunday avlodni emas, yaratuvchi, faol avlodni shakllantirishimiz kerak”.

Ochig‘i, iste’molchilik kayfiyati bir qarashda arzimasdek tuyulgan mayda narsalardan boshlanadi. Shu o‘rinda oddiy bir misol. Tasavvur qiling, qo‘l telefoningiz muammosiz ishlab turibdi. U bilan yaqinlaringizga qo‘ng‘iroq qilasiz, zarur hujjatlarni ochib, tanishasiz, suratga ham olasiz. Xullas, ushbu qurilma o‘z vazifasini ortig‘i bilan bajarib turibdi. Shu orada uning yangi modeli zo‘r berib reklama qilina boshlaydi. Tanishlaringiz birin-ketin ana shu yangi telefonni sotib oladi. Shu chog‘gacha bekam-u ko‘st ishlab, koringizga yarab turgan telefoningiz endi eskirgandek tuyula boshlaydi. Vaholanki, yangi deb taqdim qilingan modelda ham aytarli yangilik yo‘q. Bu o‘rinda telefonga bizning munosabatimiz o‘zgaradi. Endi bu qurilmani o‘zgalarning qo‘lidagi yangi telefonga qarab baholay boshlaymiz. Yangi matohning imkoniyatlaridan ko‘ra, boshqalardan ortda qolmaslik istagi uni sotib olishga undayotgani haqida bosh qotirib o‘tirmaymiz. Xullas, yangi modelni xarid qilgach, ma’lum muddat ko‘nglimiz tinchiydi. Albatta, “yangi avlod” nusxasi chiqquncha... Mana shu kichik bir misol katta bir savolni o‘rtaga tashlaydi: biz bugun farovon yashashni istayapmizmi yoki farovon ko‘rinishni?

HAVASNING HAM HISOBI BOR!

Har bir inson yaxshi yashash uchun intilishi tabiiy hol, albatta. Shinam uy-joy, zamonaviy va ishonchli mashina, sifatli ta’lim kishiga yangi imkoniyatlar eshigini ochishi tabiiy. Yetishmovchiliklar changalidan xalos bo‘lishga urinayotgan oilaga moddiy ehtiyojlarini arzimas deb tushuntirish ham adolatdan emas. Halol mehnat bilan topilgan daromadni qanday sarflash har kimning o‘z ixtiyoridagi masala ekaniga zarracha shubha yo‘q.

Qimmat telefon kim uchundir zarur ish quroli vazifasini o‘tashi mumkin. Binobarin, suratga oladigan, video kontentlar tayyorlaydigan kishi uchun uning imkoniyatlari muhim sanaladi. Yana kimdir ayni shu qurilmani, zarurat bo‘lmasa-da, boshqalardan ortda qolmaslik uchun sotib olishi mumkin. Bu o‘rinda bir xil narsaga egalik qilishning sabablari farqli. Shunchaki havas, o‘zgalardan kam bo‘lmaslik istagi ehtiyojdan ustun kelishi iste’molchilik ruhiyatining asosiy belgilaridan biri hisoblanadi.

Aytish mumkinki, bugun nimalarga egaligimiz o‘z qadrimizni o‘lchaydigan bosh mezonga aylanib, ehtiyoj bilan havasning chegarasi yo‘qola boshladi. Afsuski, o‘zimizga “Aslida, menga nima kerak?” degan savolni berish o‘rniga, “Boshqalarda nima bor?” degan savolni ko‘proq beryapmiz. Bunday taqqoslashda qoniqish hissi uzoqqa cho‘zilmaydi. Chunki har doim kimningdir mashinasi biznikidan yangiroq, uyi kattaroq, dasturxoni to‘kinroq bo‘lib chiqadi.

Keling, to‘yga tayyorgarlik ko‘rayotgan oddiy oilani tasavvur qilaylik. Dastlab mehmonlar soni va ular uchun sarflanadigan xarajat xonadon sohiblarining moddiy imkoniyatiga qarab belgilanadi, tadbirlar ham shunga mos rejalashtiriladi. Biroq kutilmaganda “to‘yimiz falonchinikidan kam bo‘lmasin”, degan da’vo o‘rtaga chiqadi. Oqibatda dastavval kamtargina tuzilgan rejalar o‘zgarib, ro‘yxat uzayadi, qo‘shimcha xarajatlar qo‘shiladi. Bir kunlik marosim uchun yosh oilaning keyingi ehtiyojlariga atalgan mablag‘ ham sarflanadi, yetmaganiga qarz-havola qilinadi. Bu qaror oilaning, yoshlarning turmushiga qanday ta’sir qilishi masalasi esa chetga suriladi. Bu o‘rinda “Odamlar nima deydi?” degan andisha bilan ortiqcha xarajatlarga zo‘r beriladi. Afsuski, bunday ijtimoiy bosim to‘ydan to‘yga o‘tib, “gullab-yashnab” davom etib kelyapti. Tantana sohibining saxovati, dasturxonga tortilgan xilma-xil taomlar va gulgun davrani yanada qizdirgan dongdor xonanda va sozandalarni ko‘rib lol-u hayron bo‘lgan mehmonlarning ham aksariyati ana shunday to‘ylar qilishni ko‘ngliga tugadi. Aytish mumkinki, ana shu orzumandlar orasida o‘zimiz ham bormiz.

Ko‘z-ko‘z qilishga sarflangan mablag‘ning yana bir hisobi bor – uni ishlab topish uchun ketadigan umr. Ortiqcha xarajat, qarz va majburiyatlar kishini dam olish paytlarida ham ter to‘kib mehnat qilish hamda oila va yaqinlar davrasida kechadigan qimmatli vaqtning bahridan o‘tishga majbur qiladi. Shu bois, sirtdan jozibali ko‘rinadigan bunday hayot tarzi kishining sillasini quritib, qimmatli vaqti va sog‘lig‘i bilan badal to‘lashiga sabab bo‘ladi. Bunday yo‘qotishlarni hech qanday mezon bilan o‘lchab bo‘lmaydi. Xullas, bugungi to‘kin-sochin to‘ylar ham iste’mol jamiyatining muhim belgilaridan biri boshqalardan kam bo‘lmaslik istagining mahsuli hisoblanadi.

HASRATLI O‘YLAR ISKANJASIDA...

Iste’molchilik kayfiyatining kuchayib borishida raqamli texnologiyalar, ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarning o‘rni katta. Hozir ijtimoiy tarmoqlar odamlarning yashash tarzini, orzu-istaklari, intilishlarini belgilab beryapti, desak, adashmaymiz. Tasavvur qiling, mazkur tarmoqlar orqali bir necha daqiqa ichida bir tanishingizning sayohatini, boshqasining yangi uyini, uchinchisining qimmat xaridini ko‘rdingiz. Boshqacha aytganda, uch xil hayotning eng yorqin lahzalari bir tasmaga yig‘ilgan. Siz esa beixtiyor ularning barchasini o‘z turmushingiz bilan solishtira boshlaysiz. “Falonchi chet elda yallo qilib yuribdi, men esa ishdan ortmayman”, “Pismadonchining mashinasi zo‘r ekan, men qachongacha eski ulovda yuraman?” degan hasratli o‘ylar iskanjasida qolasiz. Aslida, o‘sha tanishlaringiz erishgan natijalar ortida zahmatli mehnat, yo‘qotish yoki majburiyatlar borligi haqida o‘ylab ham ko‘rmaysiz. Zotan, birgina ko‘tarinki lavha odamning butun turmushini to‘liq ifoda eta olmaydi. Biz mashinasiga havas qilgan mardumning gardanida bir necha yillik qarz yuki bo‘lishi ham mumkin. Biz esa bundan bexabar, o‘z hayotimizga noxolis baho berishga shoshilamiz. Aksar odamlar mashina olishni orzu qilayotgan paytda bizning beminnat ulovimiz borligi va “g‘ildiraklari tagidan shamol esib turgani” haqida o‘ylab ham ko‘rmaymiz.

SOTIB OLINGAN KITOB VA O‘QILGAN KITOB...

Iste’molchi, xaridor jamiyat sharoitida narsalarga, buyumlarga tobora bog‘lanib borayotgan insonlarning turmush tarzi, taqdiri olimlarni ham anchadan buyon o‘ylantirib keladi. XX asrda yashagan mashhur nemis sotsiologi va faylasufi Erix Fromm ana shunday fikr egalaridan edi. U o‘zining “Egalik qilish yoki ega bo‘lish” (“To have or to be”) asarida egalik qilishga qaratilgan turmushni mehr, baham ko‘rish va yaratuvchanlikka asoslangan yashash tarzi bilan taqqoslaydi. U g‘arb industrial jamiyatlarida “egalik qilish”ga asoslangan hayot tarzi hamda pul, mol-dunyo, shon-shuhrat va hokimiyatga nisbatan ochko‘zlik hissi kishilar hayotining mazmuniga aylanib qolganini afsus bilan ta’kidlaydi. Umuman, Fromm singari faylasuflar o‘tgan asrning ikkinchi yarmidayoq iste’mol jamiyatining fojialari haqida ogohlantirgan bo‘lsa-da, odamlar bunga aytarli e’tibor qaratgani yo‘q. Qaytanga muammo yanada o‘tkirlashib ketdi. Vaqtida G‘arb jamiyatida avj olgan iste’molchilik, xaridorlik kayfiyati o‘zga jamiyatlarda ham tobora bo‘rtib ko‘zga tashlanmoqda.

Shu o‘rinda Erix Fromm ta’kidlagan “egalik qilish”ga asoslangan hayot tarziga oddiy misol. Aytaylik, siz bir kitobni sotib olib, chiroyli javonga qo‘ydingiz, suratini esa yaqinlaringizga ulashdingiz. Go‘yoki siz kitobga egalik qilyapsiz, boshqalar tasavvurida kitobxon odam obrazida namoyon ham bo‘ldingiz. Biroq vaqt ajratib, ana shu kitobdan o‘rin olgan qimmatli fikrlar, g‘oyalar bilan tanishish va tafakkur qilishga zarracha rag‘batingiz yo‘q. Binobarin, sizning bunday “egalik qilishingiz” zamirida mantiq yo‘q. Yoki universitet diplomini amal-taqal qo‘lga kiritish bilan astoydil bilim olish evaziga mutaxassis bo‘lib yetishish orasidagi farq ham shunga o‘xshaydi. Xullas, xo‘jako‘rsinga kitob sotib olish yoki “bo‘m-bo‘sh kalla” bilan diplom olish orqali hech narsaga erishib bo‘lmaydi. Bu narsalarga shunchaki egalik qilish – qusur, nainki qusur, fojia aslida!

YANGISINI OLIB, ESKISINI TASHLAMANG!

Xaridlarimizning yana bir bahosini tabiat to‘laydi, desam ishonasizmi? Har qanday mahsulotni ishlab chiqarish uchun muayyan miqdorda xomashyo, energiya va ishchi kuchi sarflanadi. Ushbu mahsulotlardan foydalanish natijasida hosil bo‘ladigan chiqindilarni yig‘ish va qayta ishlashning ham turgan-bitgani xarajat. Xalqaro elektr aloqasi ittifoqi va BMTning UNITAR instituti tomonidan tayyorlangan “Global E-waste Monitor – 2024” hisobotida qayd etilishicha, 2022-yilda dunyo bo‘yicha hosil bo‘lgan 62 million tonna elektron mahsulotlar chiqindisining atigi 22,3 foizi yig‘ilib, risoladagidek qayta ishlangan.

Albatta, har qanday qurilma ham vaqt o‘tishi bilan eskiradi, buziladi. Odamlarning ularga nisbatan ehtiyoji ham o‘zgaradi. Lekin tuppa-tuzuk ishlab turgan elektron qurilmadan imkon qadar ko‘proq foydalanish, buzilganda ta’mirlash, yangisini xarid qilganda yaroqlisini ehtiyojmand odamlarga berish orqali bunday zararli chiqindilar salmog‘ini kamaytirish mumkin. Odamlar yangi narsani sotib olishdan avval eskisini nima qilish haqida ham o‘ylab ko‘rsa, bu jamiyat uchun ham, tabiat uchun ham foydali bo‘ladi.

OLTIN O‘RTALIQNI TOPISH ZARURATI

Bugungi davrda yangi xaridlarga qaram bo‘lmaslik, kundalik hayotda oltin me’yorlarga amal qilib yashash jamiyat hayotining bosh mezoniga aylanishi zarur. Har qanday masala bo‘yicha qaror qabul qilishda me’yorni saqlash esa, avvalo, o‘zimizning hayotiy ehtiyojlarimizni yaxshiroq anglashdan boshlanadi. Yangi sotib olinadigan matoh ishimizni yengillashtiradimi, vaqtimizni tejaydimi, bizga uzoq vaqt xizmat qiladimi? Yoki uni shunchaki o‘zgalarga havas tufayli xarid qilyapmizmi? Avvalo, mana shu oddiy savollarga javob topishimiz lozim. Asosiysi, iste’molchilik kayfiyati hayotimizni boshqarishiga, insoniyligimizga putur yetkazishiga yo‘l qo‘ymaslik kerak.

Me’yoriylik tamoyillarini ta’lim jarayonida hayotiy mashqlar orqali ham targ‘ib qilish mumkin. Masalan, o‘quvchilar shartli bir buyumning reklamasida tilga olingan ma’lumotlarni aniq tahlillar va hisob-kitoblar yordamida tekshirib ko‘rish orqali uning ehtimoliy natijalari haqida xulosa chiqarishi mumkin. Oila davrasida ham yirikroq xaridlarga qo‘l urishdan oldin barcha birgalikda “Shu ishni qilish uchun qaysi rejalarni ortga surib, nimalardan voz kechishimiz kerak?” degan savollarga birgalikda javob izlashi lozim. Ana shunday tutumlar orqali asta-sekin me’yor va maromiylik tamoyillarini hayot tarziga aylantirish mumkin.

Jamiyatdagi e’tiroflar ham maromiylik mezonlarini shakllantirishda muhim o‘ringa ega. Deylik, yaxshi shogird tarbiyalagan ustoz, o‘z ishini puxta bajaradigan usta, odamlarning muammosiga yechim topgan tadqiqotchining faoliyatini ommaga ko‘proq targ‘ib qilish, shu darajaga erishguncha qanday qiyinchilik va zahmatlarni yengib o‘tganiga urg‘u berish zarur. Shu tariqa, yoshlar ongiga hurmat va e’tirofga erishish uchun mashhur bo‘lish shart emasligi, o‘zgalar tan olishi uchun qimmatbaho buyumlarga ega bo‘lish talab etilmasligi haqidagi haqiqatlarni singdirib borish zarur.

Xo‘sh, bugun biz tanlagan kasb-korimizdan yaxshi daromad orttirish barobarida, yaqinlarimiz bilan birga bo‘lish, o‘qib-o‘rganish va o‘z ustimizda ishlash uchun vaqt ajratyapmizmi, dam olishga imkon topa olyapmizmi? Agar shunday bo‘lsa, demak, to‘g‘ri yo‘ldamiz. Agar o‘zgalarning havasini uyg‘otish, odamlar orasida nom qozonish tashvishi bizni tinimsiz mehnatga undayotgan bo‘lsa, o‘zimizni farovon hayot kechirayotgan erkin inson, deb ayta olmaymiz.

Sirasini aytganda, bugun moddiy boyliklarga nisbatan ongli munosabatda bo‘ladigan, o‘zining bilimi, kasb-hunari va tashabbuskorligi bilan jamiyatga foyda keltiradigan avlodni tarbiyalash juda muhim hisoblanadi. Har bir shaxs farovon yashash uchun intilishi tabiiy. Ammo insonning qadri uning mol-mulki bilangina o‘lchana boshlasa, bilim, halol mehnat va odamiylik singari tushunchalar soyada qolib ketishi mumkin.

Farzandlarimizga bor narsani qadrlash, har qanday mol-u matohni aql bilan xarid qilishni o‘rgatishimiz va ularni o‘z mehnati bilan yangilik yaratishga da’vat etishimiz lozim. Farovonlik tushunchasini nafaqat mol-mulk, balki xotirjamlik, bilim olishga ishtiyoq va yaqinlarimizga ajratadigan vaqt bilan o‘lchashni ham o‘rganaylik. Eng muhimi, biz narsalar uchun emas, narsalar biz uchun xizmat qilsin. Ertaga moddiy manfaatdan o‘zgasini tan olmaydigan iste’molchilar olomoni orasida emas, balki ma’rifatli jamiyatda yashash uchun ham shunday yo‘l tutishimiz shart va zarurdir.

Avazbek SHERMATOV,
Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti ilmiy xodimi

JAHON AYVONIDA

SUN’IY INTELLEKT QUROL YARATMOQDA



Xitoyning sun’iy intellekt modellari tadqiqotchilarga biologik qurol yaratish hamda suiqasdlarni amalga oshirish usullarini o‘rgatgani ma’lum bo‘ldi.

“BBC” nashrining xabar berishicha, mazkur xavfli holat yuzasidan “Moonshot” kompaniyasi zudlik bilan ichki tekshiruv ishlarini boshlab yuborgan.

TV BOSHLOVCHISI MAMLAKAT QIROLI

Ugandadagi Tooro qirolligida sobiq televideniye boshlovchisi yangi qirol sifatida taxtga o‘tirdi va Batooro xalqining 13-monarxiga aylandi.



“Reuters” agentligining xabar berishicha, mazkur tarixiy tadbir marhum qirolning vorisi borasida yuzaga kelgan murakkab mojaroga uzil-kesil yakun yasagan.

MARS XARITASI YARATILADI

Xitoy AQSH bilan fazoni o‘zlashtirish borasidagi raqobat kuchayib borayotgan bir sharoitda, 2028-yil oxiriga qadar Marsning to‘liq geologik xaritasini tuzishni rejalashtirmoqda.



“South China Morning Post” nashrining xabar berishicha, mazkur loyiha Qizil sayyoraning butun yuzasini qamrab oladi va uning geologik davrlarini belgilashda xalqaro standartga aylanishi kutilmoqda.

O‘QUVCHILAR NAMOYISHI

Fransiyada sinflarda o‘quvchilar



sonining haddan tashqari ko‘pligi, o‘qituvchilar yetishmovchiligi hamda uzoq davom etadigan dars jadvallariga norozilik bildirgan o‘quvchilar va ta’lim sohasi xodimlari ommaviy namoyishlarni boshladi.

Aksiya ishtirokchilari o‘z maktablarini to‘sib qo‘ygan – bu esa politsiya bilan keskin to‘qnashuvlarga olib kelgan.



TARIXIY YOG‘INGARCHILIK

Yaponiya poytaxti Tokio markazida ketma-ket 34 kundan buyon tinimsiz yomg‘ir yog‘moqda.

Yaponiya meteorologiya agentligi ma’lumotlariga tayanib “The Mainichi” nashrining xabar berishicha, bu holat 1886-yildan beri shahar tarixida qayd etilgan eng uzoq davom etgan yog‘ingarchilik hisoblanadi.

KIBERXAVFSIZLIK UCHUN 5 MILLION DOLLAR



Vashington Markaziy Osiyo mamlakatlarining raqamli sektori va kiberxavfsizligini rivojlantirish maqsadida 5 million dollar mablag‘ ajratdi.

Bu haqda Ostona shahrida bo‘lib o‘tayotgan “super intellekt” masalalariga bag‘ishlangan C5+1 formatidagi konferensiyada ma’lum qilindi.

BIOLOGIK YOSHGA MOSLASHUVCHI YURAK

Ko‘chirib o‘tkazilgan yurak qabul qiluvchi organizmning biologik yoshiga moslashish xususiyatiga ega bo‘lishi mumkinligi aniqlandi.



“Nature” jurnalida e’lon qilingan yangi tadqiqotga ko‘ra, yosh donorning yuragi keksa bemorga o‘tkazilganda tezroq “qarishi”, keksa donorning yuragi esa yosh organizmda biologik jihatdan “yosharishi” kuzatilgan.

QODIRIY QOHIRADA

Diplomat va tarjimon Otabek ALIMOV bilan suhbat

Boshlanishi 1-sahifada.

– O‘zbekiston va Misr ko‘p yo‘nalishlarda juda yaqin, xalqlarimiz va davlatlarimizni ming yildan ziyod tarixga ega aloqalar bog‘lab turadi. Ilk romanlarimizda ham o‘xshashlik seziladi. Shu o‘rinda bugun ham o‘ziga xos umumiyliklarni ko‘rishimiz mumkin. Hozirgi vaqtda Yangi O‘zbekistonda ulkan o‘zgarishlar amalga oshirilayotgan bo‘lsa, Misrda “Yangi Respublika” tashabbusi ostida islohotlar bormoqda. Bizda Yangi Toshkent, ularda “Yangi poytaxt” qurilmoqda.

“O‘tkan kunlar”ni tarjima qilishga to‘xtalsak, albatta, men uchun bu loyihada ishtirok etish nihoyatda sharafli ish. Shu roman asosida ishlangan badiiy filmni ko‘rgan buvim ismimni Otabek qo‘ygan ekan. Azaldan “O‘tkan kunlar”ni chet tillarga tarjima qildirish niyatida yurardim. Bir kuni Misrdagi elchimiz meni chaqirib: “Bu yerda yillab ishlashing, yaxshi xizmat qilishing mumkin. Ammo ketganingdan keyin sendan nima qoladi? Shu haqda ham o‘ylab ko‘r. Shunday ish qilginki, Vatanimizga foydali bo‘lsin”, dedi. Bu gap qattiq ta’sir qildi. “O‘tkan kunlar” ingliz tiliga ikki marotaba tarjima qilingan edi, endi uni arab tiliga tarjima qilishni niyat qildim.

Boisi, Misrda o‘zbek adabiyotiga alohida e’tibor qaratiladi. Xususan, Qohira va Ayn Shams universitetlarida Buyuk Temuriylar davri madaniyati va badiiy bitiklari bo‘yicha ilmiy ishlar muvaffaqiyatli himoya qilinishi buning yaqqol isbotidir. Shuningdek, Misr Yozuvchilar uyushmasi a’zosi Abdurahmon al-Xamisiy tomonidan ikki jildlik “O‘zbek xalq ertaklari”ning Qohirada chop etilishi xalq og‘zaki ijodi darajasidagi mushtaraklikni namoyon etadi. Ammo “O‘tkan kunlar” – boshqa olam.

Avval “Misr–O‘zbekiston” do‘stlik jamiyati raisi, yozuvchi va tarjimon Magdi Za’bal janoblari bilan maslahatlashdim. U kishining O‘zbekistonga hurmati bo‘lakcha, ilgari Vatanimizga oid kitob ham yozgan ekan. Xullas, professor Muhammad Nasriddin al-Jibaliy bilan birlamchi kelishuvga erishdik. Yana bir tarjimonni Saudiya Arabistonida yashayotgan o‘zbeklardan topdik. Biroq u: “Kimning asarlari bo‘lsa, mamnuniyat bilan tarjima qilardim, lekin Abdulla Qodiriyga qo‘l urolmayman. Qodiriy tilini buzib qo‘yishdan cho‘chiyman. Ammo Said Mahmud Kosoniy ismli inson bor, ana shu shaxs arab tiliga juda mahorat bilan o‘giradi. Hozirda u O‘zbekistonda”, deb javob berdi.

U kishi Afg‘onistonda tug‘ilgan, asli kosonsoylik, ammo Saudiya Arabistonida voyaga yetib, arab maktabida tahsil olgani sababli, asosiy tili arab tiliga aylangan. Tarjima qilishga va barcha shartlarimizga, jumladan, gonorar miqdoriga ham aslo e’tiroz bildirmasdan rozi bo‘ldi. Shundan keyin yonimdagi al-Jibaliyning tarjimasini ko‘rsatganimda, u kishi matnni o‘qib: “Iltimos, shu insonga topshiring! Manbani juda go‘zal o‘giribdi, balki men bu darajada uddalay olmasman. Ushbu matn menga juda yoqdi”, deb samimiy tavsiya berdi.

Ta’kidlash joizki, Said Mahmud aka o‘sha vaqtda “Mehrobdan chayon” romanini arab tiliga o‘girib bo‘lgan ekan. Fursatdan foydalanib, u kishidan “O‘tkan kunlar”dagi ba’zi iboralarni tarjima qilish bo‘yicha qimmatli tavsiyalar oldim. Suhbatdan ko‘nglim to‘lib, kim bilan tarjima qilish bo‘yicha qat’iy qarorga keldim. Butun mehnat ta’tilim davomida, “O‘tkan kunlar”ni tarjimaga tayyorladim: tarjimaga oson bo‘lsin, deb o‘zbek, rus va ingliz tillaridagi tarjimalarni skanerlab, tahrirlab chiqdim, solishtirish oson bo‘lishi uchun hamma tarjimani bir jadvalga kiritdim.

Tarjimaga kirishishdan avval Abdulla Qodiriy uy-muzeyiga bordim. U yerda yozuvchining nabirasi Xondamir Qodiriy bilan uchrashdim. Boshida u kishi: “Asarning rus tilidan tarjima qilinishiga qarshiman, o‘zbek tilidan qilinishi kerak!” deb rozi bo‘lmadi. Men hech bir tarjimon Qodiriychalik yoza olmasligini, o‘zbek tilini biz istagan darajada o‘rgangan chet ellik yozuvchi yo‘qligini tushuntirdim. Misrga qaytib, to‘g‘ri Ayn Shams universiteti professori al-Jibaliy bilan uchrashdim.

– Jarayonning mas’uliyatli, va ayni paytda, qizg‘in bo‘lganidan biz ham ta’sirlandik. Shu o‘rinda Qodiriydan qolgan o‘lmas iboralar va tasvirlarning arabcha ifodasini topish oson bo‘lmagandir?

– Tarjima jarayonida bir necha jihatga alohida urg‘u berdim. Xalqimiz orasida keng tarqalgan shunday jumla va iboralar borki, ularning mag‘zini chaqish zarur. Masalan: “Siz o‘shamu?” yoki “Marg‘ilonda ham shunday kelinimiz bor ekan-ku, biz bilmay yurg‘an ekanmiz-da!” kabi iboralar ingliz yoki rus tillariga qanday o‘girilgan? Muhimi, xatolikka yo‘l qo‘yilmasin”. “O‘tkan kunlar”ni qayta o‘qiganimda, ilgari e’tibor bermaganim – “To‘y-u azalarga “kavshim ko‘chada qolg‘an emas”, deb bormas edi” kabi iboralarga duch kelib, ularning teranligidan hayratda qoldim.

Vaqt o‘tib, ijod yakunlandi. Nashr etish uchun Misrdagi eng yirik va nufuzli “Dor ul-Maorif” nashriyotini tanladik. O‘sha davrda O‘zbekistonning xorijdagi elchixonalariga turizmni rivojlantirish va targ‘ib qilish uchun mablag‘ ajratilgan edi. O‘sha paytda Misrda inflyatsiya yuqori bo‘lgani uchun



ushbu mablag‘ning bir qismini tejab qolishga erishgan edim. Turizm vazirligi (hozirgi Qo‘mita) xodimlari bilan muzokara o‘tkazib: “Ushbu asarni nashr etish xarajatlarining bir qismini qoplashda ko‘maklashasizlarmi? Qolganini o‘zimiz hal etamiz, qolaversa, bu loyiha o‘zbek madaniyatini xorijda targ‘ib qilishga xizmat qiladi”, dedim. Ular rozi bo‘ldi va bu haqda rasmiy tasdiq xatini oldim. Fursatdan foydalanib, kitob tarjimasi va nashrida yaqindan yordam bergan Turizm qo‘mitasiga, Said Mahmud aka, Husayn aka, Murtazo aka va boshqa barcha ko‘maklashgan do‘stlarimizga, misrlik hamkorlarimizga minnatdorlik bildiraman.

Kitobga eng silliq, sifatli qog‘oz va mustahkam qattiq muqova tanlandi. Bo‘lajak nashrning muqovasi va ichki bezagi ham meni ancha o‘ylantirdi. Xondamir aka bilan uchrashganimda, u kishi muzeyda saqlanayotgan mashhur bir suratni ko‘rsatib, shu paytga qadar qo‘llanilgan eng yaxshi muqova rasmi ekanini aytgandi. Bizga ham ma’qul keldi.

Endi asarning arabcha nomiga kelsak. Ingliz tiliga “Days Bygone”, “Bygone Days” yoki shunchaki “Past Days” deb o‘girilgan. Ma’lumki, muallif asarni “O‘tgan zamondagi kunlar”, “O‘tguvchi kunlar” emas, oddiygina “O‘tkan kunlar” deb nomlagan. Arab tiliga to‘g‘ridan to‘g‘ri tarjima qilinganda “Al-ayyam al-madiya”, “Al-ayyam al-qadim”, Misr shevasida “Al-ayyam ilifat” yoki shu kabi turli variantlar bor. Lekin tarjimon “Al-ayyam al-xavaliy” variantini taklif etdi. U: “Birinchi marta uchrashganimizdanoq shu nom haqida o‘ylab



yurgandim, shunisi eng munosibi”, dedi. Ushbu nomni Misrdagi ko‘pchilik soha mutaxassislariga ko‘rsatdim va hamma bir ovozdan ma’qulladi.

Tarjima jarayonidagi eng nozik jihatlardan biri – milliy kolorit va iboralar mazmunini saqlab qolish edi. Masalan, “Siz o‘shamu?” degan mashhur jumlani oddiy va sovuq tarjima qilmaslik, undagi hayajon va hayrat hissini berish uchun bir qator misrlik do‘stlar bilan suhbatlashdik va arab tilidagi eng munosib muqobilini tanladik.

Tarjima jarayonida muhokama qilingan yana bir muhim va nozik masala sizlash odati bo‘ldi. Eriga nisbatan “siz” deb murojaat qilish rus tilidagi “вы” shakliga ham, arab yoki ingliz tillariga ham aynan to‘g‘ri kelmaydi. Xorijlik mutaxassislar Kumushning Otabekka “siz” deyishini arab tiliga ko‘chirish tabiiy chiqmasligini, chunki arablarda “siz” so‘zi faqat hukmdorlarga yoki o‘ta rasmiy muhitda ishlatilishini ta’kidlashdi. Ammo biz bu milliy koloritni saqlab qolishni istardik. Ma’lum bo‘lishicha, oilada er-xotin o‘rtasidagi bunday hurmat va “sizlash” madaniyati turkiy xalqlar orasida ham aynan o‘zbeklarga xos bo‘lgan juda noyob hodisadir.

Arab kitobxoni kitobni qo‘liga olganda asar mazmunini teranroq anglashi uchun nomga izohli qo‘shimcha kiritdim. Ya’ni, “O‘tkan kunlar – Turkistondagi achchiq muhabbat qissasi” deb nomlandi. Misrda turk tili ancha ommalashganini inobatga olib, asar muqovasida “O‘zbekiston” emas, aynan “Turkiston” so‘zi qo‘llanishi arab kitobxonlarida ushbu hudud va uning tarixiga nisbatan qiziqish uyg‘otishi ko‘zda tutildi.

– Otabek aka, bugun dunyoda kitob yozish va chiqarishdan ham og‘ir ish uni tarqatish bo‘lib qoldi. Begona o‘lkada yot muallif asarini qanday targ‘ib qildingiz?

– Elchixonadagi imkoniyatlarimizdan foydalanib, asarni Qohiradagi arab davlatlari elchixonalariga tarqatdik. O‘zbekistondagi arab mamlakatlari elchixonalariga ham 100 ga yaqin nusxa yubordik. Shuningdek, Buyuk Britaniya hamda AQSH (Kongress kutubxonasi) elchixonalariga ham 4 nusxadan taqdim etdik. Hozirgi kungacha elchimiz vazirlar va yirik tadbirkorlar bilan o‘tkaziladigan har bir yuqori darajadagi uchrashuvlarda ushbu asarni “O‘zbek adabiyotining shoh asari” sifatida faxr bilan tortiq qilmoqda. Tarqatish ishlari izchil davom etmoqda.

Shu o‘rinda yana bir fikr tug‘ildi: “Agar ushbu asar Nobel mukofotiga taqdim etilsa, butun dunyo o‘qiydigan bo‘lardi”. Odatda, vafot etgan shaxslarga bu mukofot berilmasligi ma’lum. Ammo mukofot nizomi matni bilan tanishganimda, undagi bandlar mujmal yozilgan edi. Ingliz tili sohiblari ham ushbu bandlarni o‘qib, aniq tushuna olmadi. Biroq nizomda “asarning munosib tarjimasi uchun mukofotlash mumkinligi”ga ishora qiluvchi alohida band borligi aniqlandi. Shundan so‘ng elchixona orqali rasmiy diplomatik nota tayyorladik. Shvetsiya va Norvegiyaning Misrdagi elchixonalariga rasmiy xat yuborib, mustabid tuzum yillarida Abdulla Qodiriy qatag‘on qurboni bo‘lgani bois, uning asari jahon adabiyotida keng tanilmaganini tushuntirib, “O‘tkan kunlar”ni Nobel mukofotiga nomzod sifatida ko‘rib chiqish tashabbusini ilgari surdik.

Nobel mukofoti bo‘yicha jo‘natilgan notaga shvetsiyaliklardan tegishli javob keldi: “Afsuski, biz diplomatik vakolatxona sifatida bu masalani bevosita hal qila olmaymiz. Tashkilot qoidalariga ko‘ra, mukofotga taqdim etishning muayyan tartib-taomillari va buning uchun maxsus veb-sahifa mavjud”, deb javob berishdi. Ushbu veb-sahifani atroflicha o‘rganib chiqqanimizda, nomzod ko‘rsatish huquqiga ega bo‘lgan shaxslar doirasi juda cheklangani ayon bo‘ldi. Ro‘yxatdagi bir band e’tiborimizni tortdi. Shunda elchimizga uchrashib: “Sizning elchi sifatidagi maqomingiz butun O‘zbekiston nomidan murojaat qilish huquqini beradi. Iltimos, ushbu mumtoz tarjimani sizning nomingizdan Nobel mukofotiga tavsiya etaylik”, dedim. Nobel qo‘mitasi hujjatlarimizni qabul qilib, keyingi yilgi ro‘yxatga kiritilishini bildirdi. Sa’y-harakatlarimiz zoye ketmas, degan umiddamiz.

Biroq tarjima qilish, nashr etish va tarqatish loyihaning bir qismi, xolos. Eng muhimi va murakkabi – kitobni o‘qita olish edi. Asar berilgan shaxslardan alohida iltimos qilib, fikrlarini so‘rab turdim. Kitobni o‘qib chiqqan arab kitobxonlari: “Bu shunchalik go‘zal va ta’sirli asar ekanki, uni albatta Misrda kino qilib suratga olish kerak! Voqealar rivoji va qahramonlar kechinmalari Misr xalqining hayoti va mentalitetiga juda mos”, deya yuqori baho berdi. Shundan so‘ng tarjima ko‘ngildagidek chiqqaniga ishonchim komil bo‘ldi.

– Nazarimizda, bu ulug‘ asar misrlik o‘quvchilar uchun jahon adabiyoti darsligidan o‘rin olishga munosib.

– Xuddi shu masalaga o‘tmoqchi edim. Asarni yanada kengroq ommalashtirish va o‘qitishni ta’minlash maqsadida uni Misr ta’lim tizimiga kiritish g‘oyasi tug‘ildi. Misr Oliy ta’lim hamda Ta’lim va tarbiya vazirliklariga Tashqi ishlar vazirligi orqali rasmiy nota yubordik. Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abdulla Qodiriy asarlarining tarjimalarini ilova qilib, ularni umumo‘rta maktab adabiyoti va o‘quv dasturlariga paritet asosida kiritishni taklif etdik. Mazkur tashabbusni amalga oshirish aslida O‘zbekiston hukumati va tegishli vazirliklarning rasmiy ruxsatini talab qilardi. Elchimizga bu haqda aytganimda, muvaffaqiyatsizlik ehtimoli yuqori bo‘lsa-da, harakat qilib ko‘rishga ruxsat berdi. Misr tomoni uchrashuvlarda buni amalga oshirishga va’da bergan bo‘lsa-da, hali amalga oshmadi.

Zamonaviy raqamli imkoniyatlardan ham foydalanib, asarni dunyo bo‘ylab elektron tarqatishga kirishdim. Mualliflik va nashr huquqlari o‘zimda bo‘lgani uchun uni o‘nlab davlatlarda faoliyat yuritadigan “Amazon” platformalariga joyladim. “Amazon” o‘z qoidalariga ko‘ra bepul qo‘yishga yo‘l qo‘ymagani sababli minimal 99 sent narx belgilandi. Bundan tashqari, “Google Play” (“Google Books”), “Ozon” va “LitRes” kabi manbalarga kitobni to‘liq bepul joylashtirdim. Har kuni statistikani kuzatib boraman: Hozirga qadar arabcha tarjimani 3700 dan ortiq kishi “Google Books”dan yuklab oldi. Har kuni qancha odam olayotganini kuzatish menga alohida kuch va zavq bag‘ishlaydi.

– Shiddat-shahdingizga havas qildik. Bugun ba’zi taniqli ijodkorlarning farzandlari ham ota-onalarining merosini bu qadar targ‘ib qilmaydi. Ammo bu katta loyiha yakunlangach, qoniqishdan boshqa yana qanday hislar tug‘ildi?

– Tarjima yakunlangach, kundalik tartibimda vaqt bo‘shab qolganini va hayot bir xil bo‘lib qolganini his etdim. Shunda yangi tashabbusga qo‘l urdim. Arab tiliga o‘girilgan “Boburnoma” asarining tarjimoni – taniqli olima Majida Maxluf xonim bilan uchrashib, kitobni qayta nashr etish bo‘yicha muzokara o‘tkazdim. Muallif manbaning raqamli PDF formati va barcha tasvirlarini taqdim etdi. Ushbu elektron nusxani O‘zbekistondagi Bobur xalqaro jamg‘armasiga yubordik va ulardan tashakkurnoma oldik.

Tarjimon Majida xonim o‘sha paytda xasta edi. Kitobni u kishining hayotlik davrida chop etishga ulgurishni juda istardim. Tijoriy bo‘lmagan va ma’rifiy maqsadda nashr etish uchun rasmiy rozilik xatini oldik. “Boburnoma” ham ming nusxada chop etilib, “O‘tkan kunlar” kabi tarqatildi. Muallifga ham yaqin insonlariga taqdim etishi uchun 100 nusxa eltib berildi. Nashrga alohida badiiy bezak berildi.

Keyinchalik “O‘tkan kunlar” romanining olmon tilidagi tarjimasi ham tayyorlandi. AQSHda tug‘ilgan, ingliz va olmon tillarini mukammal biladigan, hozirda Iskandariyada istiqomat qiladigan germaniyalik do‘stimiz Odri Kollins xonim bilan uchrashdik. U kishi O‘zbekistonning faxriy konsuli bo‘lish istagi borligini aytganida, men unga hazil tariqasida: “Buning uchun mamlakatimiz adabiyoti va madaniyati uchun muhim bir ish qilishingiz kerak, masalan, “O‘tkan kunlar”ni nemis tiliga o‘girish foydali bo‘lardi”, deb taklif bildirdim. Avvaliga bu shunchaki rasmiy gap edi, chunki bu taklifni ilgari o‘nlab kishilarga aytganman, ammo hech kim qo‘l urmagan edi. Biroq ma’lum vaqt o‘tib, Odri xonim tarjima qilish uchun asarning elektron nusxasini so‘radi. Men mualliflik huquqlari buzilmasligi uchun sun’iy intellekt yordamida tayyorlangan va o‘zim tahrir qilgan inglizcha xom tarjimani unga taqdim etdim. U matnni o‘rganib chiqib, tarjimadagi ba’zi nuqsonlarni to‘g‘riladi va asarni nemis tiliga mahorat bilan o‘girdi. Tarjima tayyor bo‘lgach, Odri xonim Qohiraga kelib, Tashqi ishlar vazirimizga shaxsan topshirdi, elchimiz va menga ham bir nusxadan hadya qildi. Yaqin kunlarda ushbu nemischa nashr ham “Amazon” platformasiga joylashtiriladi.

– Asar tarjimasidan keyin misrliklardan ham “Otabekning Kumushi bormi?” kabi savollar tushmadimi?

– Bo‘ldi bunday holatlar ham. Yana bir ma’lumotni yodimga soldingiz. Ochig‘ini aytsam, nimagadir yoshligimdan “Zaynab” ismi unchalik yoqmasdi. “O‘tkan kunlar” tugaganidan keyin arab adabiyotidagi ilk roman qaysiligi bilan qiziqa boshladim. Ma’lum bo‘lishicha, uning nomi “Zaynab” ekan!

Keyinchalik, o‘zim ham Muhammad Husayn Haykalning “Zaynab” romanini o‘zbek tiliga tarjima qilishni va ikki xalqning ilk romanlarini “uchrashtirish”ni istadim. Sababi, undagi voqealar va ruhiyat, hatto Zaynab va Homid kabi nomlarning qo‘llangani “O‘tkan kunlar” romaniga juda o‘xshab ketadi. “O‘tkan kunlar”ning ostnomi “O‘zbeklar turmushi haqidagi tarixiy roman” bo‘lsa, “Zaynab”ning ost nomi “Misr qishloq manzaralari va axloqi” deya atalgan.

Shu orada bu tarjima qilish degani shunchalik qiyin ekanini, va odatda, tarjimonga juda kichik gonorar berilishini bilib, tarjimonlarga achinib ham qo‘ydim. Bir necha bor tarjima qilish fikrimdan ham qaytdim. Qohiraga rasmiy safar bilan kelgan Alisher Navoiy nomidagi xalqaro jamoat fondi rahbari bilan uchrashdim. U kishi bu tarjimani tezroq tugatishim kerakligini aytib, kerakli maslahatlarini berdi. Shukrki, shu yili tarjimani tugatish nasib qildi. Kelgusida nashr qilinishidan umidvorman.

– Otabek aka, Siz boshlagan ezgu ishlar Qodiriy hazratning ruhi poklarini shod etajak. Siz bilan suhbatimiz tugamadi. Kelgusida Mahmud Koshg‘ariy, Navoiy, o‘zbek tili va boshqa mavzulardagi mulohazalarga qaytamiz. Suhbat uchun tashakkur!

– Tahririyatga minnatdorlik bildiraman. Jadidlar merosini targ‘ib qilish va zamonamiz jadidlariga minbar bo‘lish saodati bardavom bo‘lsin!

Shahriyor SHAVKAT suhbatlashdi.



“Agar odamda bari risoladagidek – qiyofasi, odobi, fikri va qalbi chiroyli bo‘lsa – buning hammasi o‘qigan kitoblari sharofatidan.

Anton CHEXOV

USTOZLAR MINBARI



“OTAM TANLAGAN KASB – MEN TANLAGAN TAQDIR”

**Dildora AZIMOVA,
Toshkent shahri, Shayxontohur tumanidagi 19-sonli maktab o‘zbek tili fani o‘qituvchisi:**

– Bu sohaga kirib kelishim ham o‘zgacha bo‘lgan. Bolaligimdan tikuvchi bo‘lishni orzu qilganman. To‘qimachilik institutiga kirishni rejalashtirayotganimda, otam fikrimga qarshi chiqib: “Tikuvchi emas, o‘qituvchi bo‘lasan. O‘qimishli bo‘lmasam ham seni o‘qitaman”, deganlar. Oilada to‘rt qizning to‘ng‘ichi edim. Padarimning xohishi va talabiga ko‘ra shu kasbni tanlaganman. Bugun ular bu yorug‘ olamda yo‘q. Ammo hali-hanuz u kishini duo qilaman. Meni shu sharafli kasbga yo‘naltirganlari uchun otamdan mingdan ming roziman, minnatdorman.

Kasbim orqali juda ko‘p insonlarga mehrimni, bilimimni bera oldim. Bugun turli sohalarda yaxshi lavozimlarda ishlab kelayotgan ko‘plab shogirdlarim bor. Hatto ayrimlarining farzandlariga ham dars berib kelyapman. Bu men uchun katta baxt va faxr.

Bizning davrimizda o‘qituvchining zimmasidagi vazifalar ham ko‘p edi. O‘qituvchilar paxta terimiga chiqardi, mikrouchastkalarda uyma-uy yurib, bolalarning o‘qishini nazorat qilardi, obodonlashtirish ishlariga jalb etilardi. Maktabda navbatchilik qilib, hatto ertalabgacha qolgan paytlarimiz ham bo‘lgan. Bugun esa o‘qituvchini bunday ishlardan ozod qilish, uning asosiy vazifasi – ta’lim va tarbiya bilan shug‘ullanishiga imkon yaratishdir. Menimcha, bu o‘qituvchining kasbiy maqomini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Men bu yil o‘qituvchilik sohasida 41 yillik mehnat yo‘limni bosib o‘tdim. Bugun ham bor bilimim va tajribamni yosh avlodga berishga tayyorman. Men uchun o‘qituvchilik – shunchaki kasb emas, sharafli hayot yo‘li.



TEXNOLOGIYADAN USTUN QADRIYAT

**Shahrizoda HABIBULLAYEVA,
Samarqand davlat universiteti Xorijiy til va adabiyoti fakulteti 3-bosqich talabasi:**

– O‘qituvchilik men uchun shunchaki tanlangan kasb emas, ajdodlarimdan davom etib kelayotgan ma’naviy yo‘lning bir qismidir. Men ustozlar va kitob qadrlanadigan ziyoli oilada ulg‘ayganman. Shu bois bu kasbga mehrim bolaligimdan shakllangan. Bugun zamonaviy kasblar ko‘p. Ammo texnologiya qanchalik rivojlanmasin, inson tafakkurini uyg‘otadigan, uni izlanishga va o‘z ustida ishlashga undaydigan ustozga ehtiyoj yo‘qolmaydi. Ayniqsa, til va adabiyot o‘qituvchisi nafaqat fan o‘rgatadi, balki o‘quvchining o‘zga til, boshqa xalqning adabiyoti, hamda milliy tafakkur va qadriyatlarimizga munosabatini shakllantiradi. Men uchun ustozning eng katta merosi – o‘quvchisida mustaqil fikrlash va o‘rganishga bo‘lgan ehtiyojni shakllantirish. Chunki bilimni keyinchalik to‘ldirish mumkin, ammo izlanishga odatlangan inson umrining oxirigacha o‘rganishda davom etadi. Ustoz sinfxonadan chiqib ketadi, ammo uning bergan fikri va qadriyatlari shogirdining hayotida davom etadi. Bugungi o‘quvchini darsga jalb qilish esa o‘qituvchidan yangicha yondashuvni talab qiladi. Menimcha, maqsad o‘quvchini 45 daqiqa sinfxonada ushlab turish emas, uning fikrini darsda ushlab turishdir. Buning uchun o‘qituvchi ijodkor, kuzatuvchan va zamonaviy texnologiyalardan foydalana oladigan bo‘lishi bilan birga, o‘quvchini tushunishi ham kerak. O‘quvchi o‘zgargan sari uni o‘qitish usuli ham o‘zgaradi. Ammo ustozning o‘quvchiga bo‘lgan e’tibori, ishonchi va uning kelajagi uchun mas’uliyati o‘zgarmasligi kerak.

SHUKUH

“Ustoz qalblar muhandisidir”

Malika SHOMIRZAYEVA,
Shayxontohur tumani 19-maktabning o‘zbek tili o‘qituvchisi:

– Avvalo, bayram bilan barcha ustozlarni tabriklayman. Yaratganning nazari tushgan kasblardan biri muallimlik bo‘lsa kerak. Mashaqqatli, ammo juda sharafli kasb. Men qariyb 35 yildan beri ta’lim sohasidaman, faoliyatim davomida katta o‘zgarishlarning guvohi bo‘ldim. Ko‘pincha mendan: “Nega ustoz bo‘lgansiz?” deb so‘rashadi. Men esa “Chunki o‘quvchi bo‘lganman”, deyman.

Otam ona tili va adabiyot fanidan olimpiadada birinchi o‘rin olganimni hisobga olib, Toshkent davlat universitetining o‘zbek filologiyasi fakultetiga kirishimni istadi. Dastlab bu qarorni majburan qabul qilganman. Ammo universitetda Ozod Sharafiddinov, Begali Qosimov, Yoqub G‘ulomov kabi buyuk ustozlardan ta’lim olganimdan keyin o‘z yo‘limni topdim. “Men ustoz bo‘laman”, degan qarorga keldim.

O‘quvchini sevmasdan turib, yaxshi ustoz bo‘lish qiyin. Har bir bolaning o‘z dunyosi, o‘z muammosi, o‘z orzusi bor. Ba’zilarining oilaviy sharoiti og‘ir, ayrimlari ota-onasi ajrashgan yoki boshqa oilaviy muammolar bilan maktabga keladi. Ularning ko‘ngli juda nozik. Ba’zan ularga “Men senga ishonaman, sen buni uddalaysan”, degan birgina jumlaning o‘zi katta kuch beradi. Darsga kirganimda, o‘quvchilarni “Umidimiz yulduzlari” deb chaqiraman.



Eng muhimi, bolalar o‘zlari kelib: “Ustoz, qachon teatr qo‘yamiz?” deb so‘raydi. Demak, bizning mehnatimiz samara beryapti. Ular kitob o‘qiyapti, obrazga kiryapti, fikrlayapti, bahslashyapti. Hatto rus sinfida o‘qiydigan o‘quvchilar ham sahnaga chiqib, o‘zbek tilida asarlarni ijro etishmoqda.

Men har doim hamkasblarga: “Agar joningizni berib ishlamasangiz, boshqa kasb qiling”, deyman. Chunki o‘qituvchi – inson qalbining muhandisi. Inson qalbi shishadan ham nozik. Agar o‘sha billurga biror yaxshi fikr, ishonch, umid bera olsangiz, bu sizning eng katta yutug‘ingiz. Yillar o‘tib, ko‘chada shogirdingiz “Ustoz!” deb murojaat qilsa, uning sizni unutmaganini ko‘rsangiz, bundan ortiq sharaf bo‘lmaydi.

“E’tirofdan keyingi mas’uliyat”

Yulduz PARDAYEVA,
“Shuhrat” medali sohibasi,
Sirdaryo viloyati Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabining ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi:

– Men uchun bugungi tong nihoyatda shukuhli bo‘ldi. Chunki uzoq yillar davomida qilgan mehnatlarim yuksak baholandi. Xalqim va Davlatimiz rahbarining e’tirofiga sazovor bo‘lganimdan juda xursandman.

Bugun o‘quvchilik yillarimni eslayapman. Yoshligimdan kelajakda, albatta, o‘qituvchi bo‘lishni, yoshlarga ona tili va adabiyot fanidan saboq berishni, ularni adabiyotga oshno etishni orzu qilardim. Bugun esa o‘sha bolalik orzularim ro‘yobga chiqqanidan mamnunman.



Ta’lim sohasida o‘ttiz yildan buyon mehnat qilib kelmoqdaman. Shu yillar davomida ko‘plab shogirdlar tarbiyalash baxtiga muyassar bo‘ldim. Ularning har bir yutug‘i men uchun katta quvonch. Zero, ustoz shogirdining muvaffaqiyatini o‘z yutug‘idek qabul qiladi. Shogirdlarimning erishayotgan natijalari menga ham yangi kuch va ilhom beradi.

Bugungi kunda mamlakatimizda ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, ustoz va murabbiylarga yaratilayotgan sharoitlar bizni quvontirmoqda. Uzoq yillar davomida orzu qilingan ko‘plab imkoniyatlarning yaratilayotgani o‘qituvchilar zimmasidagi mas’uliyatni ham yanada oshirmoqda. Menimcha, bunday e’tirof va e’tibor biz, ustozlarni yanada ko‘proq izlanishga, o‘z ustimizda ishlashga va yosh avlod ta’lim-tarbiyasiga yanada samarali hissa qo‘shishga undaydi.

58 yil – kasbga sadoqat tarixi

Ergash SAIDOV,
“O‘zbekiston Respublikasi xalq o‘qituvchisi”
Surxondaryo viloyati Denov tumani 6-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi:

– Men 1943-yil 9-noyabr kuni Surxondaryo viloyati, Denov tumani Xolchayayon qishlog‘ida tug‘ilganman. Bolaligim shu qishloqda o‘tdi. Shu yerdagi 6-umumiy o‘rta ta’lim maktabida tahsil oldim. Maktabni tamomlab, oliy ta’lim muassasasiga o‘qishga kirdim. O‘qishni a’lo natijalar bilan yakunlab, 1968-yil 12-avgust kuni o‘zim tahsil olgan 6-maktabga boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi bo‘lib ishga qabul qilindim. Mana, qarang, oradan 58 yil o‘tibdi… 58 yil – bir maktabda o‘tgan umr. Bu men uchun shunchaki mehnat staji emas. Bu – butun bir hayot, yuzlab shogirdlar, minglab darslar va ustozlik kasbiga sadoqat tarixidir.

Shu yillar davomida boshqa joyga ketmadim. O‘zim o‘qigan, keyin esa mehnat faoliyatimni boshlagan maktabimda qoldim. Butun umrim shu dargohda o‘tdi. Hamon shu maktabda yosh avlodga saboq berib kelyapman. Inson hayotida shunday bir joylar bo‘ladiki, u yer bilan taqdiri chambarchas bog‘lanib ketadi. Men uchun bu maskan – 6-maktab. Bu yerda men nafaqat o‘qituvchi, balki ustozlik kasbining qadrini, uning mas’uliyati va zavqini anglab yashadim. Ba’zan “Maktabdan ketsammikan?” degan xayol ham keladi. Ammo yoshlarning shijoati, ko‘zidagi qiziqish, ilmga intilishiga qarab, yana ishlagim kelaveradi. Ularning g‘ayrati menga ham kuch beradi. Shuning uchun ham hali-hanuz dars berishdan, bolalar bilan ishlashdan zavq olaman.



Muyassar IBROHIMOVA,
Vasila HABIBULLAYEVA yozib oldi.

KUZATUV

Shaxmatchilarimizning tom ma’nodagi olamshumul g‘alabasi dovrug‘i bugun yetti iqlimni hayratga solmoqda.

Ispaniyaning mashhur “Damas y Reyes” sayti muharriri Federiko Marin Belyonning tahlili mutaxassis va ishqibozlar orasida “o‘zbek shaxmat mo‘jizasi” degan ibora trendga chiqishiga sabab bo‘ldi.

Quyida ushbu tahliliy maqolani muxtasar shaklda e’tiboringizga havola etyapmiz.



El secreto del milagro de Uzbekistán: un Gobierno y un país orgullosos de sus ajedrecistas

Por Federico Marín Bellón / 21 de septiembre de 2026

O‘zbekiston mo‘jizasining siri:

SHAXMATCHILARI BILAN FAXRLANADIGAN DAVLAT VA XALQ

O‘zbek mo‘jizasi aslida mo‘jiza emas. Buning ortida e’tibor, mehnat va yaratilgan imkoniyatlar turibdi. Hukumat shaxmatni rivojlantirishga katta e’tibor qaratdi va 38 million aholiga ega, ilgari jahon shaxmatida deyarli ko‘zga tashlanmagan mamlakatni so‘nggi uchta Olimpiadaning ikkitasida g‘olib chiqqan yirik shaxmat davlatiga aylantirdi.

Bu sa’y-harakatlar boshlang‘ich ta’limdan boshlanadi. Tizimning yana bir muhim jihati esa eng yaxshi sportchilarning munosib qadrlanishidir. Samarqanddagi g‘oliblarning har biri 200 ming dollardan mukofot oldi. Boshqa mamlakatlar shaxmatchilari bunday rag‘batga havas bilan qaramoqda.

Ispaniyalik grossmeyster Pako Valexo bu haqda shunday dedi:

“Menimcha, Ispaniya sharafini himoya qilib, qatnashgan barcha (o‘nta bo‘lsa kerak) Olimpiadalarimdagi jami partiyalarni yutganimizda ham bu miqdordagi pulni olmagan bo‘lardim”.

O‘ZBEKISTON – BUTUNLAY BOSHQA MAMLAKAT

Eslaylik, bundan atigi o‘n yil avval Boku Olimpiadasida O‘zbekiston 39-o‘rinni egallagan edi. O‘sha musobaqa Ispaniya uchun ham unchalik omadli kechmagan bo‘lsada, ispanlar 31-o‘rinni egallagan.

Batumi Olimpiadasida (2018) O‘zbekiston Ispaniyani ortda qoldirib, 16-o‘rinni egalladi. 2022-yilda Chennayda oltin medalni qo‘lga kiritdi. Budapeshtda 2024-yilda uchinchi bo‘ldi. Samarqandda esa yana chempionlikka erishdi.

Bu o‘sish hayratlanarli va uni inkor etib bo‘lmaydi.

Gap faqat to‘rt-besh nafar juda kuchli shaxmatchi haqida emas. So‘nggi Olimpiadada mezbonlarning ikkinchi jamoasi ham o‘z natijalari bilan e’tiborni tortdi.

Ular so‘nggi ikki turda mag‘lubiyatga uchrab, yakunda 18-o‘ringa tushib qolishdi. Shunga qaramay, buning o‘zi ham katta natija. Chunki musobaqa davomida ular Ispaniya, Angliya va Niderlandiyani mag‘lub etishdi. Ayniqsa, Niderlandiya ustidan 3,5:0,5 hisobidagi g‘alaba har ikki jamoa a’zolarining xotirasida uzoq saqlanishi aniq.

Ularni faqat Hindiston, Xitoy va Germaniya kabi uchta kuchli jamoa to‘xtata oldi.

PREZIDENTNING E’TIBORI

Bularning barchasida muhim burilish 2018-yilda yuz berdi. O‘sha yili Prezident Shavkat Mirziyoyev shaxmatni rivojlantirishga qaratilgan hujjatni qabul qildi.

Shundan so‘ng 150 ta maktabda shaxmatni o‘qitish bo‘yicha tajriba dasturi yo‘lga qo‘yildi va uni ta’lim tizimiga bosqichma-bosqich joriy etish yo‘l xaritasi ishlab chiqildi. Shu bilan birga, murabbiylar tayyorlash tizimi kuchaytirildi, shaxmat klublari infratuzilmasi rivojlantirildi.

2021-yilda dastur yanada kengaydi. Ixtisoslashtirilgan maktablar soni ikki baravar oshirildi. Yana mingta ta’lim muassasasida 2–4-sinf o‘quvchilari uchun shaxmat mashg‘ulotlari joriy etildi. Maktablar shaxmat taxtalari, donalar, soatlar va o‘quv-uslubiy materiallar bilan ta’minlandi. O‘qituvchilar tayyorlandi, sport maktablaridagi shaxmat bo‘limlari kengaytirildi.

Natijalar allaqachon ko‘rina boshlaganiga qaramay, hukumat bu yo‘nalishdagi ishlarni susaytirmadi. So‘nggi o‘quv yilida shaxmat jismoniy tarbiya va matematika fanlari doirasida ham o‘qitilib, unga 36 soatlik dastur ajratilgan.

Albatta, buni ortiqcha deb hisoblaydiganlar ham topilishi mumkin. Tafsilotlar ustida bahslashib o‘tirmaylik. Bir narsa aniq: biror sohaga jiddiy e’tibor qaratilib, buning uchun kuch va imkoniyat ayalmasa, natija keladi.

IQTIDORLARNI SARALASH

Albatta, minglab bolalarga shaxmat o‘rgatishning o‘zi yetarli emas. Ular orasidan eng iqtidorlilarini aniqlash va imkon qadar yuqori natijalarga erishishi uchun ularni qo‘llab-quvvatlash ham kerak.

Iqtidorli shaxmatchi aniqlangach, jarayonga International Chess School qo‘shiladi. Erishilgan natijalarga qarab shaxmatchilar va murabbiylarga pul mukofotlari beriladi.

Mukofot faqat oltin medal uchun emas, kumush uchun 100 ming dollar, bronza medal uchun esa 50 ming dollar. Har bir holatda murabbiylar ham shaxmatchiga beriladigan mukofotning yarmiga teng miqdorda rag‘batlantiriladi.

Yoshlar Olimpiadasi, Paralimpiada va FIDEning boshqa rasmiy musobaqalarida, jumladan, Osiyo chempionatlarida medal qo‘lga kiritganlar uchun ham alohida mukofotlar belgilangan.

Yana bir raqam: grossmeyster unvonini qo‘lga kiritgan shaxmatchiga qo‘shimcha 5 ming dollar mukofot taqdim etiladi.

MINNATDORLIK MUROJAATI

O‘zbekistonning oltin medali aniq bo‘lgach, Prezident Shavkat Mirziyoyev shaxmatchilarga bag‘ishlangan keng va samimiy minnatdorlik murojaatini e’lon qildi.

Unda Prezident shaxmatchilarni “o‘g‘il-qizlarim” deb ataydi, terma jamoaning har bir a’zosi erishgan natijani nomma-nom tilga oladi. Hatto ayrim murakkab va muhim partiyalardagi vaziyatlarga ham alohida to‘xtaladi.

“Muxtasar aytganda, – deya xulosa qiladi Prezident, – milliy terma jamoamizning har bir a’zosi o‘ziga ishonib, doimo oldinga intilganini ko‘rib, butun dunyo Yangi O‘zbekistonda shakllangan buyuk shaxmat maktabi va yangi avlodni e’tirof etdi”.

Ayollar terma jamoasi haqida esa shunday deydi: “Ular ham keskin bahslarda haqiqiy matonat ko‘rsatdi. AQSH terma jamoasi bilan tengma-teng kurashdi, 11 ta uchrashuvning 7 tasida g‘alaba qozonib, yakunda 13-o‘rinni egalladi. Bu muhim natija”.

Prezident Samarqanddagi Para-shaxmat olimpiadasida erishilgan muvaffaqiyatlarni ham alohida qayd etadi. Unda O‘zbekiston shaxmatchilari ilk bor jamoaviy medalni qo‘lga kiritdi, shuningdek, bir nechta shaxsiy medallarga ham sazovor bo‘ldi.

“Barcha shaxmatchilarimiz timsolida xalqimiz yuksak bilim va qat’iyatga ega, ulkan maqsadlarga erishishga qodir Yangi O‘zbekiston yoshlarini ko‘rmoqda”, deya o‘z murojaatini yakunlaydi Shavkat Mirziyoyev.

Federiko Marin BELYON

Jadid
adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

Bosh muharrir:
Iqbol MIRZO

Muallif fikri tahririyat fikri bilan mos kelmasligi mumkin.

Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Adadi – 18 348
Shundan:
Kirill yozuvida – 6 819
Lotin yozuvida – 11 529
Media kuzatuvchilar – 90 706
Buyurtma: G – 1040
Hajmi: 4 bosma taboq, A2.
Nashr ko‘rsatkichi – 222.
Tashkilotlar uchun – 223.
1 2 3 4 5 6

Mas’ul kotib: Shuhrat Azizov

Navbatchi muharrir:
Gulchehra Umarova

Sahifalovchilar:
Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva



Manzilimiz:
Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko‘chasi, 69-uy
Telefonlar:
Qabulxona: (71) 203-24-20
Devonxona: (97) 745-03-69
jadidgzt@mail.ru (71) 203-24-17
Jadid_gazetasi@exat.uz

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.

Bosmaxona manzili:
Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 21:00

Sotuvda narxi erkin.

www.jadid.uz

Muassislar:

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI
RESPUBLIKA MA’NAVIYAT VA MA’RIFAT MARKAZI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
MILLIY MASS-MEDIANI QO‘LLAB-QUVVATLASH VA RIVOJLANTIRISH JAMOAT FONDI
“SHAHIDLAR XOTIRASI” JAMOAT FONDI